Geodezik usullarda o'lcham olishni bajarishda shuni yodda tutish lozimki, bu erda xuddi geodeziyadagi kabi o'lchamolish usullari va uslublaridan foydalilanadi. Qo'yilgan masalalar va

mahalliy sharoitlar xususiyatlarini e'tiborga olgan, eng tejamlı va barcha talablarga javob beradigan usulni tanlashni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Me'moriy obidalar elementlarining o'lchamlarini olishning dalada bajariladigan ishlarning tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Inshoot devorida nul ish chizig'ini belgilash.
2. Nul ish chizig'ining vertikal shkalasiga balandlik otmetkasini uzatish.
3. Borib bo'lmas gorizontal elementlarning o'lchamlarini proektsiyalash usulida aniqlash.
4. Vertikal tekislikda joylashgan borib bo'lmas vertikal va qiya elementlarning o'lchamlarini aniqlash.
5. Boshqa borib bo'lmas masofalarni aniqlash.
7. Aylana shaklidagi inshootlarning radiusi va markaz koordinatalarini aniqlash.
8. Inshootlarning o'lchamlarini olishni tezkor geodezik usul orqali bajarish.

SHunday qilib, me'moriy obidalarni ta'mirlash va kelgusida ularning monitoringini o'tkazish maqsadida texnik holatini baholash uchun o'lcham olish ishlarida geodezik o'lhashlar metodikasini qo'llashni bilish zarur.

1.2. Me'moriy obidalarning shikastlanishi va boshqa turdag'i deformatsiyalarning sabablarini tahsilqilish

Keyingi vaqtarda kadimiy va bebafo me'moriy obidalarga ega bo'lgan shaharlar taraqqiyotida me'moriy obidalarni ta'mirlash va saqlash masalalariga bo'lgan e'tiborning etishmasligi oqibatida krizisli zonalarning soni tobora ortib bormoqda. Deformatsiyalarni keltirib chiqaradigan sabablar va ularning miqdorlarini aniqlash loyihalash va geodezik o'lhashlarni to'g'ri olib borishda katta ahamiyatga ega. Bu ma'lumotlar ishlarni amalga oshirish uchun usullar va asbob-uskunalarini to'g'ri tanlash imkonini beradi. Me'moriy obidalarni ta'mirlash jarayonida eng muhim bosqich – ularning texnik holatini va foydalanish fazilatlarini to'g'ri baholash maqsadida joyda geodezik tadqiqotlar o'tkazish hamda deformatsiyalar va erozion jarayonlarni kuzatish, ya'ni me'moriy obidalarning shikastlanishini diagnostika qilishdir.

Diagnostika usullarini ta'mirlash ishlari amaliyotiga joriy qilishme'moriyobidalarini texnik holatini to'liqtahsilqilishva natijalarni yagona, hamma uchun umumiyligi shaklda yozish imkonini beradi, ta'mirlash ishlarini loyihalashda xatoliklarning oldini olishni ta'minlaydi, ishlarning sifatini ob'ektiv baholash, foydalanish jarayonida obidalarning holatini tekshirish va aniqlangan nuqsonlarni tuzatish bo'yicha tezkor choralarini ko'rish imkonini beradi.

«Me'moriy obida – tashqi muhit» sistemasi elementlarini diagnostika qilishusullari va vositalarini tanlash me'moriy obidalarning texnik holatini vizual baholash va uning deformatsiyalishi sabablar haqida oldindan muloxaza qilishga bog'liq. Me'moriy obidalarning shikastlanishiga olib keluvchi sabablarga quyidagilarni kiritish mumkin: obidalarning o'ziga xos bo'lgan (konstruktiv) sabablar; tashqi tabiiy va antropogen omillar ta'siri va obidadan foydalanish rejimi bilan bog'liqbo'lgan sabablar [6, 7].

Birinchi sabablar tarkibiga obidalarning joylashish o'rni bilan bog'liqbo'lgan (hududning geomorfologik xususiyatlari) va inshootning xarakteri bilan bog'liqbo'lgan sabablar (qo'llaniladigan materiallarning xili va sifati, konstruktiv nuqsonlar, ta'mirlashda yo'l qo'yilgan xatolar, texnologik xatolar va boshqalar)ni kiritish mumkin.


Tashqi sabablar insoniyat tomonidan keltirilgan tabiiy ziyon va shikastlanishlarni o'z ichiga oladi. Ularni o'z navbatida, tabiiy uzoq davom etuvchi sabablar, tabiiy tasodifiy sabablar va insonning xo'jalik faoliyati bilan bog'liqbo'lgan sabablarga ajratish mumkin.

Uzoq davom etuvchi sabablarga inshoot konstruktsiyalarini asta-sekin emiradigan ko'p sonli fizikaviy, ximiyaviy, biologik va mikrobiologik jarayonlar kiradi. Ular ko'pincha inshootlarni «qarishi» termini bilan ta'riflanadi. Inshootning bunday qarishiga Samarqand shahridagi SHohi-Zinda ansambl va Ruhobod, Ishratxona, Go'ri-Amir maqbaralari g'ishtli devorlari orasidagi beton qorishmalarning emirilishini misol tariqasida keltirish mumkin.

YOMG'ir va qor erigan suvlarining ta'siri, devorlarda harorat keskinlashuvining paydo bo'lishi, er osti suvlarining ta'siri, avtovoztransportning harakati, quyosh radiatsiyasi, shamol, haroratning keskin

o'zgarishi, chiqindi gazlar va boshqalarning ta'siri hamme'moriyobidalarning emirilishiga va shikastlanishiga olib keladi.

Inson faoliyati bilan bog'liqbo'lgan sabablarga me'moriy obidalar atrofida odamlar tomonidan qilinadigan o'zgarishlar ta'sirida kelib chiqadigan zararlar kiradi. Bular – havoda zaharli elementlarning paydo bo'lishi (masalan, oltingugurthi gaz, uglerod oksidi, ammiak oksidi), gidrogeologik sharoitlarning o'zgarishi, obidalarning yaqinida qurilgan bino va inshootlardan tushadigan dinamik bosimlar, mexanik uskunalarining tebranishi, cho'kuvchan gruntlarning namlanishi, otmostkalarning nosozligi, tomdansuv o'tishi va hokazo (1.1-rasm).



1.1-rasm. Me'moriy obidalarning emirilish sabablari.

Tabiiy tasodifiy sabablar tabiiy ofat hodisalari (er qimirlashi, sel oqimlari, ernen siljishi, er osti suvlarining o'zgarishi va hokazo) ni o'z ichiga oladi.

Me'moriy obidalarni saqlash uchun himoya zonasini barpo etish maqsadga muvofiqdir. Himoya zonasi – bu me'moriy obidalarning birlamchi (dastlabki) holati qayd qilingan, sun'iy yaratilgan yoki maqsadga yo'naltirilgan, tadbirlarni tabiiy ravishda qo'llab-quvvatlaydigan zonadir. Himoya zonasi inshootning asosi gruntlarning ko'tarish qobiliyatini saqlaydi, gidrogeologik rejimni va obidalarning atrofidagi geologik muhit bilan o'zaro ta'siri doirasida gruntlarning holatini o'zgartiruvchi omillarning ta'sirini yo'qotadi.

Me'moriy obidalarning himoya zonasini ta'minlash bo'yicha himoya tadbirlari sifatida quyidagilarni tavsiya etish mumkin [7]:

- (me'moriy obidalarning ta'siri doirasida) gruntlar holatining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi er osti va er ustidagi barcha qurilishlardan holi qilish;
- asos gruntlarining namligini o'zgartiradigan, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridan sizib chiqadigan suvlarni qochirish;
- gruntlarga dinamik va mexanik ta'sirlarni yo'qotish va tebratuvchi ishlarni to'xtatish;
- agar gruntlar muzlagan va biologik emirilishga duchor bo'lgan bo'lsa, me'moriy obidalarning poydevorlarini qishki muzlash va erish zonasidan pastga tushirish.
- gidroizolyatsiyasi bo'limgan yoki gidroizolyatsiyasi yo'qotilgan poydevorlarga va muzlaydigan gruntlarga nam o'tishini kamaytirish uchun devor atrofiga drenajlar o'rnatish;
- obidalar hududini vertikal rejalah (hududning doimiy nishabligini ta'minlash);
- me'moriy obidalar majmuasihududini suv bosganda doimiy drenaj sistemasi yordamida grunt suvlari satxini pasaytirish;
- antropogen jarayonlar ta'siri ostida o'zining yuk ko'tarish qobiliyatini kamaytirgan, faol zona doirasida asos gruntlarini sun'iy mustahkamlash;
- barcha me'moriy obidalarning deformatsiyalari va eroziya jarayonlarini joyda geodezik usullarda muntazam kuzatish;
- yaqinda joylashgan yo'llar, binolar, suv basseynlari va inshootlari, ariqlar, kanallarni iloji boricha uzoqroqqa ko'chirish va hokazolar.

Me'moriy obidalar joylashgan hududning murakkab muhandislik geologik sharoiti obidalarni ta'mirlash masalalarini echishni murakkablashtiradi.

Ta'mirlash ishlari amaliyotida asosiy emirilish va shikastlanish omillarini aniqlash yoki uning oqibatlarini bartaraf etish muhimahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamonda bular «me'moriy obida-tashqi muhit» sistemasida uzoq davom etadigan dinamik muvozanatni ta'minlash bo'yicha asosiy kompleks tadbirlardan oldin o'tkaziladigan avariyyaga qarshi va profilaktik ishlar xarakterini namoyon etadi.

Ta'kidlash joizki, me'moriy obidalarning holatini tekshirish va ta'mirlash kabi jiddiy ishlar barcha mahalliy xususiyatlarni (sharoitlarni) hisobga olgan holda va ilmiy asosda olib borilishi zarur.

1.3. Me'moriy obidalarning asosiy o'lchamlarini aniqlash ishlari va ularni bajarishga q'yiladigan asosiy talablar

Me'moriy obidalarni ta'mirlash maqsadida ularning o'lchamlarini aniqlash ishlari vazifalariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- sxematik (eskizli) o'lcham olish;
- me'moriy o'lcham olish;
- me'moriy-arxeologik o'lcham olish.

Sxematik o'lcham olish ishlari me'moriy obidani aniqlash jarayonida va dastlabki tahvilqilishda bajariladi. Bunda inshootning asosiy o'lchamlari va rejalah strukturasi (tuzilishi) aniqlanadi. Sxematik o'lcham olish obidahaqida faqatgina umumiy tasavvurlarni beradi. Bu erda quyidagi geodezik usullardan foydalanish mumkin:

- inshootning borib bo'lmas balandligini aniqlash;
- borib bo'lmas gorizontal masofani aniqlash;
- gumbazlar, minoralar va aylana shaklidagi boshqa inshootlarning diametrini aniqlash va hokazo.

Me'moriy o'lcham olish – obidalarning nafaqat umumiy sxemasini, balki me'moriy shaklini grafik tarzda ifodalovchi, obidalarning elementlarini mufassal o'lchashdir. CHizmalarning mashtabiga ko'ra o'lcham olishning detalizatsiya darjasini turlicha bo'lishi mumkin.

O'lcham olish ishlari ta'mirlash va rekonstruktsiya loyihalarini ishlab chiqish uchun bajariladi. O'lcham olish ishlarni bajarishda obidalarning shakli ideallashtirib ko'rsatilgandek bo'ladi, ya'ni qurilish xatoliklari, shuningdek, inshootning deformatsiyalari ham e'tiborga

olinmaydi. O'lcham olish ishlarida geodezik usul qo'llanilganda kompleks o'lchash ishlarining barchasi olib boriladi.

Me'moriy-arxeologik o'lcham olish inshootni joyda naturali tahlilqilish bilan bir vaqtning o'zida ta'mirlash loyihasini ishlab chiqish va obidaning holatini qayd etish uchun bajariladi. O'lchash ishlarida ideal shakllardan barcha chetga chiqishog'ishlarhisobga olinadi. Bunda o'lchashlar aniqligiga yuqori talablar kuyiladi, kuyilgan vazifalarni echish keng miqyosda olib boriladi.

Me'moriy o'lcham olishning bir necha usullari mavjud: naturali (joyida), geodezik, fotogrammetrik va stereofotogrammetrik.

Me'moriy o'lcham olish ma'lumotlari bo'yichao'lcham olish chizmalari tayyorlanadi: tarxlar, fasadlar, qirqimlar, sferik yuzalarda joylashgan alohida naqshlar, bezaklar va yozuvlarning fragmentlari (bir qismi, parchasi) va hokazolar.

O'lchashlarning natijalari grafik qurilmalar uchun ishlatilganligi tufayli, grafik ishlarni bajarishdagi yo'lqo'yarli xatoliklardan kelib chiqqan holda o'lchashlar aniqligi haqidagi masalalarni echish lozim. 1.1-jadvalda grafik qurilmalar o'rta kvadratik xatolarining yo'lqo'yarli qiymatlari keltirilgan.

Bir necha bosqich (harakat) dan iborat bo'lgan qurilmalar o'rta kvadratik xatolarining yig'indisi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$M_{ep} = \sqrt{m_1^2 + m_2^2 + m_3^2 + K + m_n^2}, \quad (1.3.1.)$$

bu erda $m_1 m_2 \dots m_n$ alohida bosqich (harakat) lar xatolari.

CHekli grafik aniqlik m_{ep} 0,1 mm ga teng bo'lgan qiymatdan iborat bo'ladi, ya'ni uni oddiy ko'z bilan ko'rishning iloji bor bo'lgan nuqtadir. CHizmaning elementi kesma deb qabulqilinishi uchun uning minimal uzunligi 0,2 mm dan kichik bo'lmasligi kerak.

1.2-jadval. Grafik qurilmalar xatoliklari.

Qurilmalar turi	Xatolik, mm
Berilgan to'g'richiziqda nuqtani teshib belgilash	0,05
Ikki nuqta kesishmasida nuqtani belgilash (90^0 burchak ostida)	0,06
Berilgan nuqtaorqalichiziqo'tkazish	0,07
Berilgan ikki nuqtaorqalichiziqo'tkazish	0,07
Uzunlikni masshtabli chizg'ich yordamida o'lchash va uni berilgan to'g'richiziqda belgilash:	
- tsirkul - o'lchagichda	0,13
- mikrometr vintli tsirkul-o'lchagichda	0,12
- shtangentsirkulda	0,08

Bir necha bosqichdan iborat bo'lganqurilmalar o'rta kvadratik xatolarining yig'indisi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$M_{ep} = \sqrt{m_1^2 + m_2^2 + m_3^2 + K + m_n^2}, \quad (1.3.2)$$

bu erda $m_1 m_2 \dots m_n$ – alohidabosqichlar xatolari.

CHekli grafik aniqlik (m_{ep}) 0,1 mm ga teng bo'lganqiymatdan iborat bo'ladi, ya'ni uni oddiy ko'z bilan ko'rishning iloji bor bo'lgannuqtadir. CHizmaning elementi kesma deb qabulqilinishi uchun uning minimal uzunligi 0,2 mm dan kichik bo'lmasligi kerak.

CHizma masshtabi aniqlanganidan so'ng, tegishli grafik aniqlikda joyda (inshootda) chiziq kesmasini hisoblash mumkin. 1:50 mashtab va 0,1 mm grafik aniqlik uchun kesmaning rejadagi uzunligi 5 mm ni tashkil etadi. Ravshanki, (bundan ko'rinish turibdiki), bu holatda o'lcham olishni katta aniqlikda (masalan 3 yoki 2 mm) bajarishning xojati yo'q, chunki bu kesma chizmada ko'rinxay qoladi

Rejada (o'lcham olish chizmasida) grafik aniqlikda chiziq uzunligining gorizontal qo'yilishi masshtab aniqligi deyiladi.

Me'moriy o'lcham olishda masshtab aniqligini boshlang'ich deb qabulqilish mumkin:

$$m_{\text{öouz}} = m_{\text{ep}} M \quad (1.3.3)$$

bu erda m_{ep} - qurilmaning grafik aniqligi, mm; M – o'lcham olish chizmasi masshtabining maxraji;

(1.3.3) formuladagi chekli grafik aniqlik (0,1 mm) ni emas, balki chizma chizuvchining (yoki grafik tuzuvchi qurilmaning bajaradigan ishining) barcha harakatini kompleks hisobga oladigan, qurilmaning xatosini kiritish lozim.

SHunday qilib, o'lcham olish chizmasini qo'lda chizishda uchta asosiy operatsiyani ko'rsatish mumkin: birinchi nuqtani teshib belgilash, ikkinchi nuqtani teshib belgilash, chiziqo'tkazish. Nuqtani teshib belgilayotganda ish bajaruvchi nuqtaning haqiqiy holatidan duch kelgan tomonga qarab, chekli grafik aniqlikka teng bo'lган xatoga yo'l kuyishi mumkin. Xatolik maydoni $2m_{\text{ep}}$ diametrli aylananing chegarasida yotadi. Agar chiziladigan chiziq birinchi va ikkinchi nuqtalarning xatoliklari chegarasidan chiqmaydi deb hisoblasak, bunday qurilmaning grafik aniqligi 0,2 mm ni tashkil etadi, o'lcham olishning boshlang'ichaniqligi $M_{\text{öouz}} = 0,2M$ esa boshlang'ichaniqlikka mos keladi. Masalan, rejali asoslash aniqligini hisoblashda va boshqalarda.

O'lcham olish chizmalarini chizishda ish bajaruvchi tomonidan juda ko'p operatsiyalar bajariladi. Bundan tashqari, chizma ko'pincha qalamda chiziladi va ijrochilarning o'zları turli fiziologik ma'lumotlarga ega bo'lishadi. SHu bois me'moriy o'lcham olish amaliyotida 0,4-0,5 grafik aniqlikni belgilash ruxsat etiladi:

$$M_{\text{öouz}} = (0,4 \div 0,5)M \quad (1.3.4)$$

1.2-jadvalda chizmalar masshtabining (1.3.4) formula asosida hisoblangan aniqliklari keltirilgan.

1.2-jadval. O'lcham olish chizmalarining masshtablari aniqligi

CHizmalar turi	Sonli masshtab	Masshtab aniqligi, sm
Bosh rejalarining topografik asosi	1:500	20
Monumental me'moriy ansamblarining o'lcham olish chizmalari	1:200	8
	1:100	4
O'lcham olish chizmalarining eng ko'p joriy qilingan masshtabi	1:50	2
	1:20	0,8
Fragmentlar (inshootning bir bo'lagi)ning o'lcham olish chizmalari	1:10	0,4
YOZuvlar va naqshlar fragmentlarining grafik aniqliklarini hisobga olgan holdagi chizmalari, qolgan masshtablar – 0,4 mm	1:1	0,4 mm

CHiziqli o'lhash ishlarini nisbiy xatolik bilan baholash zarur [7, 15, 19]. Manbalarga asosan, qurilisho'lcham olish ishlarini bajarishda chiziqli o'lchamlarning nisbiy xatoligi 1/1000÷1/3000 ni tashkil etadi.

CHiziqli o'lhashlar uchun asbob-uskunalarni tanlashda nafaqat absolyut, balki nisbiy chekli xatoni hamhisobga olish zarur. Me'moriy o'lcham olishda 2,5,10 va 20 m uzunlikdagi elementlar o'lchanmoqda deb faraz qilaylik. O'lcham olish masshtabi 1:50. Ijrochining ixtiyorida santimetr bo'lakli po'lat ruletka (o'lhash absolyut xatoligi 0,5 sm) bor. 1.2-jadvalga binoan bu o'lhash asbobi bilan barcha masshtabdagi o'lcham olish chizmalari uchun o'lcham olish ishlarini amalda bajarish mumkin.

Avval keltirilgan 2, 5, 10 va 20 m uzunlikdagi elementlar uchun tegishli o'lhashlarning nisbiy xatoliklarini hisoblaymiz:

$$f_{\text{huc}} = 0,005 / 2 = 1/400$$

$$f_{\text{huc}} = 0,005 / 10 = 1/2000$$

$$f_{\text{huc}} = 0,005 / 5 = 1/1000$$

$$f_{\text{huc}} = 0,005 / 20 = 1/4000$$

Natijalardan ko'rini turibdiki, ushbu santimetr bo'lakli po'lat ruletkadan uzunligi 5 m dan kam bo'lman elementlarning o'lchamlarini olish uchun foydalanish mumkin. Qisqa elementlarning uzunligini aniqligi kattaroqbo'lgan asbob bilan o'lhash zarur, masalan, millimetrlri po'lat ruletkada yordamida. Bu holda nisbiy xatolik $f_{huc} = 0,005/2 = 1/400$ ni tashkil etadi.

Me'moriy obidalarning ta'mirlash loyihamarini ishlab chiqish maqsadida me'moriy o'lcham olish bajarishda gorizontal burchaklarni $m_\beta = 1''$ o'rtalik kvadratik xatolik bilan o'lhashga ruxsat etiladi.

Geometrik nivelerlash ishlarini texnik nivelerlar yoki trubasida adilagi bo'lgan teodolitlar yordamida bajarish mumkin. Nivelerlash yo'lining bog'lanmaslik xatosi quyidagidan oshmasligi zarur:

$$f_{h\ chek} = \pm 50 \sqrt{L}, \text{ mm} \quad \text{yoki} \quad f_{h\ chek} = \pm 10 \sqrt{n}, \text{ mm}.$$

bu erda L – nivelerlash yo'lidagi kilometrlar soni;

n – nivelerlash yo'lidagi stantsiyalar soni.

Trigonometrik nivelerlashni bajarishda nivelerlash yo'lidagi nisbiy balandliklarning chekli bog'lanmaslik xatosi quyidagini tashkil etadi:

$$f_{h\ chek} = \pm 0,04 S / \sqrt{n}, \text{ m.}$$

bu erda S – yuz metrda ifodalangan yo'lning uzunligi;

n – yo'l tomonlarining soni.

Bunda tomonlarning uzunliklarini ruletka yordamida o'lhash zarur, chunki ipli dalnomerning nisbiy xatoligi 1/400 ni tashkil etadi.

Texnik topshiriq buyurtmachi tomonidan tuziladi. U me'moriy obidaning joylashgan o'rnihaqidagi ma'lumotlar, me'moriy o'lcham olish va loyihalash bosqichining qo'yilgan vazifalari, o'lcham olish chizmalarining masshtablari va o'lhashaniqliklarini o'z ichiga olishi lozim. Topshiriqda obidalarning takribiy o'lchamlari, o'lcham olish ishlarining natijalari bo'yicha bajarilishi zarur bo'lgan fasadlar, intererlar va rejalar, materiallarni topshirish navbat va muddatlari, ishga va materiallarning mazmuniga bo'lgan alohida talablar ko'rsatiladi.

Topshiriqko'yilgan vazifalar haqida ko'rgazmali tasavvurlarni beradigan grafik ilovalar bilan to'diriladi.

O'quv amaliyotini bajarish vaqtida talabalarga amaliyot rahbari tomonidan texnik topshiriqning oddiylashtirilgan varianti beriladi. Topshiriqda ko'rsatilgan ma'lumotlarning bir qismini talabalar amaliyotning birinchi kunida me'moriy obidalarning ma'muriy vakillaridan olishadi.

1.4. Me'moriy obidalarni texnik baholashda geodezik ishlarning zamonaviy holatini tahlilqilish

Me'moriy obidalarningholatini tekshirish va ta'mirlash chuqur tadqiqotlar asosida olib borilishi lozim. Afsuski, keyingi yillarda ko'proq bu ishlar bilan zaruriy professional ma'lumotga va tegishli malakaga ega bo'lman mutaxassislar shug'ullanishmoqda. Me'moriy obidalarning holatini tekshirish va ta'mirlash bo'yichao'tkaziladigan ishlarni yaxshi biladigan malakali ishchi va mutaxassislar juda kam. Bu erda gap soddalashtirilgan usullar (tekshirish, konstruktsiyalarni buzish va almashtirish) emas, balki beqiyosuslublarhaqida boradi. Me'moriy obidalarning qadr-qimmati va ma'nodorligi muhandislik xulosalari bilan hamaniqlanadi.

Tarixiy va madaniy obidalarni himoya qilish davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlarining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bu ishda fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini qo'llab va joriy etib me'moriy obidalarni ta'mirlash, konservatsiyalash, pasportlashtirish va hisobga olish bo'yichao'tkaziladigan ishlarda jamoatchilik tashkilotlari va barcha mutaxassislarning rolini ko'zda tutadigan va aniqlaydigan konunchilik bazasi katta ahamiyatga ega.

Me'morhilikda geodeziya va fotogrammetriyaning asosiy masalalaridan biri ta'mirlash va materiallarni arxivlashtirish maqsadida hamda ilmiy-tadqiqotmaqsadlarida me'moriy-qurilish o'lcham olish va inshoot elementlarini s'jomka qilishni bajarishdan iborat.

O'lcham olish ishlarini bajarishning odatdagи naturali usullari ko'pvaqt va mablag'larni talab etadi, ayniqsa, murakkab inshootlarning o'lchamlarini olish uchun narvonlar va havozalar qurishga to'g'ri keladi.

Geodezik va fotogrammetrik o'lchashlar nafaqathududni xaritalashtirishda, balki bir qanchamuhandislik masalalarini echishda keng qo'llaniladi. Geodeziya va fotogrammetriya me'moriy-qurilish o'lcham olish ishlarini bajarishda muhim rol uynaydi.

Mamlakatimizda joyda bevosita bajariladigan me'moriy-qurilish o'lcham olish ishlariga ko'plab mablag'lar ajratilmoqda.

Muhandislik inshootlarning rang-barangligi va muhandis-geodezik ishlarning xilma-xil maqsadlari turli usullarni qo'llash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Me'morchilikda qo'llaniladigan s'yomka qilish usullarini uch guruhga ajratish mumkin:

1. Bevosita – oddiy asboblar (chizg'ichlar, ruletkalar, reykalar, shovunlar va boshqalar) va murakkab asboblar (gidrostatik nivelerlar, progibomerlar, klinometrlar, tenzometrlar, komparatorlar, nivelerlar va h.k.) yordamida o'lcham olish.

2. CHiziqli va burchak o'lchash asboblari qo'llaniladigan geodezik usullar.

3. Fototeodolitlar, fotokameralar va videokameralar qo'llaniladigan fotogrammetrik usullar.

Bevosita va geodezik usullar ko'phollarda aniq usullar hisoblanadi, ammo bevosita o'lchashlar, bir vaqtning o'zida sanoq olishning qiyinligi yoki vaqtning o'zida sanoq olishning qiyinligi yoki ko'p asboblarni o'rnatish imkoniyatining yo'qligi olinadigan ma'lumotlarning to'liqligiga monelik qiladi, usullarning ko'p mehnat talab qiladigan, hattoki xavfli bo'lishiga ham olib keladi. Bu usullarning kamchiligi sifatida bita optik asbob yordamida fazoviy o'lchashlarni amalga oshirishning iloji yo'qligini ko'rsatish mumkin. Bu erda zamonaviy elektron geodezik asboblarni qo'llashushbu kamchiliklarni bartaraft etish imkoniyatini beradi.

SHu yoki boshqa usullarni qo'llashquyidagi omillar orqaliqilanganadi: ishning maqsadi, engillik darajasi va sharoitlari, inshootning murakkabligi va o'lchamlari, bajarish uchun berilgan muddatlar, o'lchashlar aniqligi, bajarish vaqt, narxi, xavflilik darajasi va h.k.

Hozirgi vaqtida me'morchilikda geodeziya va fotogrammetriyani qo'llash masalalariga ko'proq e'tibor berilmoqda. Ammo o'lcham olishni bajarishda ularning samaradorligiga qaramasdan, ushbu usullarni qo'llash keng ko'lamda tadbiq etilmayapti. Buning sababi esa o'lcham olish va ta'mirlash ishlarining loyihamini ishlab chiqishga kompleks yondashuvning etishmasligi hamda normativ hujjatlarning yo'qligidan iborat.

Xorijiy mamlakatlarda me'moriy s'yomkalarini uch asosiy toifaga ajratish qabul qilingan: yaqinlashtirilgan (taxminiy), aniq va yuqorianiqlikdagi.

YAqinlashtirilgan s'yomkalar me'moriyobidalarni inventarlash, ta'mirlashda ularning holatini tahlilqilishva qayta tiklash maqsadlarida bajariladi. Bunda inshootlar va ular fragmentlarining 1:200 dan 1:50 gacha bo'lган masshtabdagi obzorli sxematik rejasi tuziladi.

Aniq s'yomkalar alohida yoki bir guruh binolar hamda intererlarning 1:20 va 1:10 masshtabli reja va fasadlarini chizish uchun mo'ljallangan.

YUqorianiqlikdagi s'yomkalar (xatoligi reja masshtabida 0,1 mm dan katta bo'limgan) muzeylardagi skulptura va haykalchalarini, devoriy rasm va mozaikali obidalarning freskalari va muhim sohalarini o'rganish uchun bajariladi; hujjatlarning masshtabi 1:5 dan 1:1 gacha.

Me'moriy geodezik s'yomkalarining vazifalari obidalarning geometrik shakllari, o'lchamlari va ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat. Bunda s'yomkalarining mazmuni quyidagi iste'molchilarining talablariga javob berishi kerak:

- me'moriy obidalarning shakllari va ushbu uslubga xos bo'lgan xususiyatlarni tahlilqiluvchi tarixchilarining;

- obidalarni konservatsiyalash va ta'mirlash bilan bog'liqbo'lgantadqiqotlarni o'tkazuvchi va qayta tiklash uchun sarflanadigan xarajatlarni aniqlovchi me'morlarning va h.k.

Geodezik va fotogrammetrik usullar fototopografik planlarni tuzish, fotografik materiallar bo'yichaloyihalash, loyihami joyga ko'chirish, ijroiylar s'yomkalar, bino va inshootlarning deformatsiyalarini aniqlash, me'moriy o'lcham olish, haykallarni s'yomkaqilish,

me'moriyobidalarni muxofaza qilish, ta'mirlash ishlarining hajmi va yuzalarini aniqlash, inshootlarelementlarini tekislikka yoyishni amalga oshirish va boshqalar uchun qo'llash zarur.

Xorijiy adabiyotlarda chop etilgan tadqiqotlar, me'moriy inshootlarning egri chiziq shaklidagi elementlarini aniqlash nazariyasi va texnologiyasini kam ifoda etadi.

Detallarning bitta o'qda joylashuvini, shakllarning simmetrikligini aniqlash, me'moriy shakllarning xatoligini topish alohida ilmiy ahamiyatga ega [16].

Rejada aylana shakliga ega bo'lgan me'moriy inshootlarga minoralar, gumbazlar va hokazolar kiradi. Ularni o'rganishda aylana shaklidagi inshootlar markazi va kesimlari radiusini aniqlash alohidaahamiyat kasb etadi.

SHahrisabz shahridagi Oqsaroy me'moriy obidasiqurilmalarining deformatsiya holatini kompleks tadqiqotqilish ishlari professorlar B.A. Askarov, K.S.Abdurashidov, dotsent N.M.Nishonboev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. SHikastlanish va deformatsiyalarning sonli xarakteristikalari aniqlangan va ularni mustaxkamlash usullari tavsiya etilgan.

Minora tipidagi yuqori balandlikka ega bo'lgan inshootlarning mustaxkamligi va ko'pga chidaydigan bo'lishini ta'minlash nafaqat maxkamlik xarakteristikalariga, balki inshootlarning egilishi, bukilishi, buralishi va cho'kishiga olib keluvchi dinamik ta'sirlarga hambog'liq.

L.P.Dmitriev, V.YA.Rainkin, M.A.Gusev, G.A.Brikman va boshqa olimlar tomonidan Ostankino va Erevan teleminoralarini, hamda balandligi 100 m dan 200 m gacha bo'lgano'pgina sanoat tutunlarini chiqarish trubalarini ko'rish va ulardan foydalanishda ushbu masalalarning turli jihatlari o'rganilgan. Ko'phollarda tadqiqotchilar, odatda, inshoot tepasining og'ishini yoki burilishini geodezik aniqlashlar xatoliklarini baholab, aniqlash bilan chegaralanishgan va tebranish jarayoniga e'tibor berishgan, bularning natijasida olingan natijalar og'ishning haqiqiy qiymati to'g'risida to'liq tasavvurlar bermaydi.

N.M.Nishanboevning ishlarida [12, 13] me'moriy obidalar devorlari yuzalarining rejalarini tuzish uchun bajarilgan geodezik ishlar ko'rib chiqilgan va tahlil qilinayotgan nuqtalarning fazoviy koordinatalarini topish aniqligini baholash amalga oshirilgan, devor yuzasining tenglamasi keltirilgan. Bundan tashqari, minoralarning og'ishini aniqlash, me'moriy obidalarni ta'mirlashda fotogrammetrik ishlarni bajarish aniqligi va texnologiyasi, konussimon va tsilindrik yuzalarni tekislikka yoyish, gumbazsimon yuzalarni tekislikka yoyishning ikki varianti va boshqa masalalar keltirilgan.

E.X.Isakovning ishlarida muallif birinchi bo'lib Leyka firmasining elektron-lazerli asboblari komplektining ish jarayoniga atmosfera omillarining ta'sir etishini tahlilqilgan. Quyidagi tadqiqotlar olib borilgan: teodolit va dalnomer ko'rish trubalarining o'qlarining parallelligi tekshirilgan; lazer nuri o'qining DIOR 3002 dalnomerining o'qiga parallelligi tahlilqilingan; inshoot yuzasini s'yomka qilishda perpendikulyardan chekli burchak og'ishini aniqlash uchun DIOR 3002 elektron dalnomeri tahlilqilingan; masofalarni o'lchashaniqligiga quyosh radiatsiyasining ta'sirianiqlangan va h.k.SHuningdek minoralarning og'ishi va qiyshayishini ularning buralishini hisobga olgan holda aniqlash, SHohi-Zinda ansamblidagi Kusam ibn Abbas maqbarasi devorlari va gumbazlarining frontal rejalarini stereofotogrammetrik va geodezik usullarda barpo etish masalalari ko'rib chiqilgan. Me'moriy obidalarni s'yomka qilish usullari va Leyka firmasining elektron lazerli asboblarining qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ta'mirlash ishlarini bajarish maqsadida zaruriy chizmalar, profillar va qirqimlar chizilgan.

2-BOB. GEODEZIK USULLARDA ME'MORIY OBIDALAR ELEMENTLARINING O'LCHAMLARINI ANIQLASH

2.1. Me'moriy obidalarning holatini o'rganishda geodezik usullarni qo'llash

Qadimiy me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash maqsadida, muhandisona va me'moriy tahlilini zamonaviy geodezik usullarni qo'llab, ularning holatini chuqur tekshirgan holda amalga oshirish mumkin. Me'moriy obidalarning holatini tekshirish, o'lchamlarini, ta'mirlash va rekonstruktsiya chizmalarini tayyorlash uchun geodezik usullarda kuzatish ishlari olib borilib, ularning natijalari asosida zaruriy me'yoriyhujjalr ishlab chiqiladi.

Me'moriy obidalarni ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish uchun o'lcham olish chizmalarini tuzish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning ko'pchiligidagi geodezik va fotogrammetrik usullar qo'llaniladi. Ammo, me'moriy obidalarni ta'mirlash maqsadida ularning holatini tekshirishda echilishi lozim bo'lgan quyidagi muammolar paydo bo'ladi.

- me'moriy obidalarning parametrlarini geodezik usulda aniqlash: planli-balandlik geodezik tayanch tarmog'ini barpo etish, inshootda nul ish chizig'ini rejlash va belgilash; me'moriyobidalarning gorizontal, vertikal va qiya holatda joylashgan elementlarining o'lchamlarini aniqlash; borib bo'lmas masofalarni aniqlash; inshootning borib bo'lmas balandligini aniqlash; rejada aylana shakliga ega bo'lgan inshootlarning radiusi va markaz koordinatalarini aniqlash va boshqalar.

2.2. O'lcham olish chizmalarini chizish uchun qo'llaniladigan asboblar

Me'moriy o'lcham olish ishlarning natijalari bo'yicha inshootlarning o'lcham olish chizmalarini chiziladi: planlar, fasadlar, qirqimlar, fragmentlar, naqshlar, bezaklar va devorlardagi yozuvlar va h.k.

Hozirgi vaqtida, chiziqli o'lchashlarni 1/1000 - 1/3000 nisbiy xatolik bilan amalga oshirish uchun amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan OPK3-20 ANT/10, OPK3-30 ANT/10 va OPK3-50 ANT/10 po'lat ruletkalar ishlatiladi, aniqligi yuqori (1/500) bo'lgano'lchashlarda esa OPK2-50 ANT/1, OPK3-50 BUL/1 – millimetrik bo'lakli ikkinchi klass aniqlikdagi ruletkalardan foydalaniladi.

Me'moriy s'yomkalarni bajarishda burchaklarni o'lchash uchun T15, 2T15, 2T30, 2T30P va boshqa texnik teodolitlar qo'llaniladi.

Planli geodezik va fotogrammetrik asoslarni barpo etishda, inshootlarning og'ishi va boshqa deformatsiyalarini kuzatishda 3T2KP, 3T5KP, T5, T5K, «Teo-020» markali aniq teodolitlardan foydalaniladi. Ammo shuni yodda tutmoq zarurki, agar boshqao'lchashlar, masalan, kompleks o'lchashlar tarkibiga kiradigan chiziqli o'lchashlar (avvalgi darajada qolsa) aniqligi yuqoribo'limgan asboblar yordamida bajarilsa, aniq asboblarni ishlatishning hojati yo'q. SHuning uchun chiziqli o'lchashlarga mos bo'lgan asboblar (svetodalnomerlar) dan yoki zamonaviy elektron taxeometrlardan foydalanish zarur.

Geometrik nivelerlashni bajarishda N3 va N10 nivelerlarni ishlatish mumkin. Inshootlarning cho'kishi va boshqa deformatsiyalarini aniqlashda N0,5, N1, NA1, N004 va boshqa nivelerlar qo'llaniladi.

Inshootlarda nul ish chizig'ini joyda rejlash va otmetka uzatish uchun, ta'mirlovchilar texnik nivelerlardan foydalaniladi. Ammo bu asbobdan hammavaqtham foydalanib bo'lmaydi. Masalan, nul ish chizig'ini xonalarning ichida rejashda, yorug'lik etarli bo'limgan joylarda, shtativ va reykalarni o'rnatish imkoniyati bo'limgan hollarda. Bu holatlarda gidrostatik nivelerlash usulini qo'llashmaqsadga muvofiqbo'ladi.

Hozirgi vaqtida xorijiy firmalar tomonidan ko'plab turli xil elektron, lazerli va avtomatlashtirilgan geodezik asboblar ishlab chiqarilmoqda.

Geodezik o'lchash ishlarni avtomatlashtirish va ularni bajarishni jadallashtirish uchun zamonaviy lazerli elektron asboblarni qo'llashmaqsadga muvofiq.


2.3. Me'moriy obidalarning geometrik parametrlarini geodezik usulda aniqlash texnologiyasi

O'lcham olish ishlari amaliyotida me'moriy obidalarning bir qator asosiy parametrlarini aniqlash muammosi paydo bo'ladi. Me'moriy ansambllarning geometrik parametrlarini geodezik usulda aniqlash texnologiyasini bir necha bosqichlarga ajratish mumkin.

2.3.1. Optimal planli-balandlik geodezik tarmoqlarini barpo etish

Ma'lumki me'moriy o'lchamlarni olishdan maqsad me'moriy obidalarning o'lcham olish chizmalarini tuzishdan iborat. Agar o'lcham olish ishlari inshootning ichida yoki atrofida joylashgan duch kelgan nuqtalaridan boshlab o'lchansa, o'lcham olishning aniq chizmasini tuzishning imkonni bo'lmaydi. SHuning uchun s'jomkaqilishnuqtalari bir-biri bilan o'zarobog'langan bo'lishi zarur: joyda me'moriy obidalarning o'lchamlarini olishda bu bog'liqlik inshootning ichki va tashqi tomonlarida, turli usullar orqali belglangan shartli nul va vertikal chiziqlar orqali amalga oshiriladi.

Geodezik usulda me'moriy obidalarning geometrik o'lchamlarini olishda geodezik tayanch tarmoqlari sifatida obidaning atrofidan, agar sharoit takozo etsa, ichkarisidan hamo'tkaziladigan teodolit-nivelir yo'li xizmat qiladi (2.1-rasm). Juda katta bo'lмаган inshootlarni s'jomka qilishda uchburchak yoki turburchak shaklidagi teodolit yo'li bilan chegaralanish mumkin. Ayrim hollarda, alohida fasad yoki ko'rinishlarni s'jomka qilish paytida ishlarni bitta yoki ikkita stantsiyadan turib bajarish kifoya qiladi. Bunda orientirlash bussol yordamida amalga oshiriladi.



2.1-rasm. Teodolit-nivelir yo'lining sxemasi.

Teodolit yo'lini o'tkazishda stantsiyalarning o'rni quyidagi shartlarga amal qilgan holda o'tkaziladi:

- stantsiyadan me'moriy obidaning ko'rinxaydigan zonasini bo'lmasligi kerak;
- teodolit yo'lining tomonlari lenta yoki ruletka orqali bemalol o'lchanishi ta'minlanishi lozim;
- texnik loyiha bo'yicha agar fotos'jomka ishlarni bajarish lozim bo'lsa, uning stantsiyalari teodolit yo'lining stantsiyalari bilan birlashtiriladi;
- me'moriy obidalarning eshigi yoki derazalari orqali osma yoki diagonal yo'llarni o'tkazish imkoniyatini yaratish;
- me'moriy obidalar hududida joylashgan reper va tayanch belgilariga e'tibor berish.

Agar barpo etiladigan tayanch tarmog'idan keyinchalik me'moriy obidalarning deformatsiyalarini kuzatish ishlarida foydalanilsa, bu turdag'i geodezik o'lhash ishlarining aniqligiga kuyiladigan talablarni e'tiborga olish zarur.

Barcha holatlarda tayanch tarmog'ining asosiy yo'li davlat geodezik tayanch tarmoqlariga bog'langan bo'lishi shart. Texnik topshiriqda mahalliy koordinata sistemasidan foydalanish uchun ruxsat berilgan hollar bundan mustasno.

Geodezik tayanch tarmog'i barpo etilganidan so'ng, me'moriy obidani bu tayanch tarmog'iga quyidagi usullar orqali rejali bog'lash ishlari amalga oshirilishi mumkin:

- a) qutbiy usul;
- b) to'g'ri burchakli koordinatalar (perpendikulyar) usuli;
- v) chiziq kesishtirish usuli;
- g) burchak kesishtirish usuli;

So'ngra me'moriy obidalarni balandlik tayanch tarmog'iga bog'lash ishlari va o'lcham olishning texnik loyiha va texnik topshiriqlarida ko'rsatilgan boshqa turdag'i ishlari amalga oshiriladi.


2.3.2. Me'moriy inshootlarda shartli nul chizig'ini rejalash va belgilash

O'lcham olish ishlarini bajarishda s'jomkalarni bir-biri bilan o'zarobog'lash va o'lcham olish chizmalarini aniq olish maqsadida me'moriy obidalarning tashqi yoki ichki devorlarida shartli nul chizig'i belgilanadi.

Nul chizig'i deb inshotlarning devorida belgilangan, bir xil balandlikka ega bo'lgan to'g'ri chiziqliqa aytildi. Bu nul chizig'iga balandlik o'lhash ishlarining barchasi bog'lanadi.

Agar me'moriy obidalarning tashqi va ichki tomonidagi o'lcham olish ishlarining hammasi faqat geodezik usullarda amalga oshirilsa, nul chizig'ini belgilashining zarurati yo'q. Ammo, juda ko'phollarda aralash usullar va variantlar qo'llaniladi. Bunda obidalarning o'lchashqiyin bo'lgan va borib bo'lmaydigan elementlarining o'lchamlarini olish geodezik usullar orqali, qolgan barcha ishlari esa qo'l usulida amalga oshiriladi.

SHartli nul chizig'ini belgilash ishlarini niveler yordamida amalga oshirish juda qulay (2.2-rasm). Bu ishlarni bajarishda ko'rish trubasining ustida adilagi bor bo'lgan teodolitlardan yoki kuchirib olib yuriladigan gidrostatik nivelerlardan ham foydalanish mumkin.



2.2 – rasm. SHartli nul chizig'ini belgilash.

SHartli nul ish chizig'ini belgilash maqsadida niveler inshootlardan 3-5 metruzoqlikda o'rnatiladi va tekshirilib, ish holatiga keltiriladi. So'ngra ma'lum optimal tarzda tanlangan balandlikda boshlang'ich nuqtada o'rnatilgan reykadan sanoq olinadi. Keyin esa kuzatuvchi ko'rsatgan joyga reykachiborib, inshoot bo'ylab reykani ko'taradi yoki pastga surib, o'rnatadi, kuzatuvchining ko'rsatmasiga ko'ra, reykachi niveler ko'rish trubasining o'rta gorizontal ipiga mos tushadigan boshlang'ich sanoq bo'yicha shartli nul chizig'inining nuqtalarini belgilab boradi.

SHartli nul chizig'i me'moriy obidalarning butun perimetri buylab, ichkari va tashqari tomonlarida, shu jumladan, pardevorlarda, ustunlarda va qolgan boshqa joylarda ham belgilab chiqiladi. Bu chiziqlar yaxshi ko'rinish turadigan, ammo oson yuviladigan bo'yoqlar bilan belgilanadi. Buning uchun bo'r, ko'mir parchasi, rangli bo'rlardan foydalanish mumkin. Agar me'moriy obidalarning devorlarida chiziq chizishning iloji bo'lmasa, ularni alohida (shartli nul chizig'ibo'yicha) nuqtalarda mayda mixchalar, krest shaklida chizilgan plankachalar yordamida belgilanadi. O'lcham olish ishlari yakunlanganidan so'ng, bu belgichalar olib tashlanadi.

SHartli nul chizig'inining balandligi poldan yoki erdan, iloji boricha, o'lchash ishlari bajarish uchun qulay bo'lgan balandlik (ko'pincha, odamning ko'kragiga teng bo'lgan balandlik)da bo'lishi zarur. Me'moriy inshootlarning ichki va tashqi taraflarida belgilanadigan nul chiziqlari bir xil balandlikda bo'lgani ma'qul.

Nul chizig'ini belgilash aniqligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$m_{H_0}^2 = m_{H_R}^2 + 2m_0^2 + m_j^2 + m_\phi^2;$$

bu erda m_{H_R} - reperni aniqlash o'rta kvadratik xatosi;

m_0 - reykadan sanoq olish o'rta kvadratik xatosi;

m_j - vizirlash o'rta kvadratik xatosi;

m_ϕ - markani nul chizig'iga fiksatsiyalash o'rta kvadratik xatosi.

Qiyalikda joylashgan inshootlarda, ayrim hollarda zinapoyasimon nul chizig'ini turli sathlarda o'rnatishga to'g'ri keladi. Bunday chiziqning siniq joylari (zinapoyasi)ni binoning burchaklari, eshiklar chekkasi kabi vertikal joylashgan qismlarida o'rnatish maqsadga muvofiq. Siniqchiziqlarda nisbiy balandlik sinchiklab o'lchanadi.

Nul chizig'ini inshootning kursisida yoki qandaydir bir «gorizontal» satxda o'rnatish tavsiya etilmaydi, chunki bu «gorizontal» satxlar xama vaqtham kat'iy gorizontal holatda bo'lmaydi.


Balandligi katta bo'lgan me'moriy inshootlarda turli satxlarda bir necha nul chizig'ini o'rnatishga to'g'ri keladi. YUqori nul chizig'iga otmetka uzatish oddiy geodezik usullar orqali amalga oshiriladi

Birinchi va ikkinchi gorizontlarning otmetkasi (2.3-rasm) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$H_{A\Gamma_1} = H_R + O_R \quad \text{va} \quad H_{A\Gamma_2} = H_{A\Gamma_1} + (c - d)$$

H_O ning qiymati quyidagiga teng bo'ladi:


$$H_0 = H_{A\Gamma_2} - O_1.$$



2.3-rasm. Gorizontlar otmetkalarini aniqlash.

Nul chizig'ini tejjasida vertikai osiigaq tumeikasini joydaqalmasi shart. Barchasidan ko'ra geometrik nivellirlashni qo'llashmaqsadga muvofiqdir. Agar asos qilib trigonometrik nivellirlash olingan bo'lsa (2.4- rasm), chiziqli o'lhash ishlarini ruletka yordamida bajarish lozim, chunki ipli dalnomer bilan masofani 1/400 nisbiy xatolik bilan o'lchsh mumkin. S nuqtaning otmetkasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:


$$H_C = H_A + dtg v_1 = H_A + h + i.$$



2.4-rasm. Trigonometrik nivellirlash usulida nuqtalarning otmetkalarini aniqlash.

2.3.3. Me'moriy obidalari uagi gorizontlari elementlarning o'sinamalarini proektsiyalarash usulida aniqlash

Me'moriy obidalar ko'phollarda o'zlarida murakkab fazoviy inshootlarni aks ettiradi. O'lcham olish ishlarini osonlashtirish maqsadida obidalarni xayolan uning bir qator turdosh qismlariga bo'laklab ajratish va ko'rsatish mumkin. Masalan, vertikal tekis va qiya tekis elementlarini, hamda tsilindrik, piramida shaklidagi, shar shaklidagi va boshqako'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu o'lcham olish ishlarini bajarishni tezlashtirishga imkon beradi, bir qatorholatlarda esa avvaldan ma'lum bo'lgan matematik bog'lanishlarni qo'llash imkoniyatini beradi. Me'moriy obidalarning vertikal tekis yuzalarida o'lcham olish ishlarini amalga oshirishda proektsiyalash usuli muvaffaqiyatli ravishda qo'llaniladi (2.5-rasm).



2.5-rasm. Me'moriy obidalardagi gorizontal elementlarning o'lchamlarini proektsiyalash usulida aniqlash.

Bu usul yordamida me'moriy obidalarning gorizontal holda joylashgan elementlari teodolit qarash trubasining iplar to'rining markazi orqali, teodolit vertikal doirasining «0» sanogiga mos keladigan LL shartli nul chizig'iga proektsiyalanadi. Kuzatuvchining ko'rsatmasi bo'yicha uning yordamchilari inshootning devorida M_0N_0 nuqtalarni belgilaydi, undan so'ng esa MN ga teng bo'lган M_0N_0 kesmaning devorda belgilangan uzunligi ruletka yordamida o'lchanadi. LL shartli nul chiziqning o'rniga bu inshootda belgilanib chiqilgan haqiqiy nul chizig'idan ham foydalanish mumkin.

Kuzatuvchi tekshirilgan teodolit qarash trubasining iplar to'ri yordamida inshoot elementining gorizontal holatda ekanligini oldindan tekshirishi lozim. Agar elementlar gorizontal holatda bo'lmasa, ya'ni qiyshiqholda bo'lsa, o'lhash ishlari boshqa usullarda amalga oshiriladi. 2.5-rasmda ko'rsatilgan holatda l kesmaning uzunligi quyidagicha aniqlanadi:

$$l = MN = M_0N_0$$

l kesmaning uzunligini aniqlash ishlarining natijalari 2.1-jadvalda keltirilgan.

2.1-jadval. l kesmaning uzunligini o'lhash ishlarining natijalari.

O'lchamlar №	l_i , mm	$\Delta = l_i - \bar{l}$	$(l_i - \bar{l})^2$
1	2540,5	+0,75	0,56
2	2539,0	-0,75	0,56
3	2540,0	+0,25	0,06
4	2539,5	-0,25	0,06

$$\sum l_i = 10159; \sum (l_i - \bar{l})^2; m_l = \pm 0,64 \text{ mm};$$

$$\bar{l} = 2539,75; \bar{\Delta} = \frac{|\Delta|}{n} = 0,5 \text{ mm}.$$

l kesmaning o'rta arifmetik qiymati va o'rta kvadratik xatosi quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$\bar{l} = \frac{\sum l_i}{n}, \quad m = \sqrt{\frac{\sum (l_i - \bar{l})^2}{n-1}},$$

bu erda $l_i - l$ kesmaning o'lchangun uzunligining qiymatlari;

N – o'lhashlarning umumiy soni;

l – l kesmaning o'rta arifmetik qiymati.

L kesmaning uzunligini aniqlash uchun uning o'rta arifmetik qiymatining o'rta kvadratik xatosini hisoblash zarur:

$$M = \frac{m}{\sqrt{n}}$$


l kesmaning nisbiy xatosi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$f_{huc} = \frac{[\Delta]}{l} \leq \frac{1}{2000}$$

O'lchanigan kesmaning uzunligi M aniqlikda topiladi. U holda quyidagiga ega bo'lamiz:

$$l = l \pm M$$

Me'moriy obidalarning gorizontal elementlarining o'lchamlarini aniqlash maqsadida proektsiyalash usulini ko'llaganda shuni e'tiborga olish lozimki, inshoot devorining vertikal (tik) holatda bo'lmasligi o'lhash ishlarining natijalariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin (2.6-rasm).



2.6-rasm. Inshoot devorining tik holatda bo'lmasligining o'lhash ishlariga ta'siri:a) kuzatuvchiga teskari tomonga og'ishi; b) kuzatuvchi tomonga og'ishi.

Agar inshootning og'ishi (vertikal holatda bo'lmasligi) kuzatuvchiga qarama-qarshi tarafga bo'lsa gorizontal elementning o'lchamlari quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$\frac{AB}{A_0B_0} = \frac{\Delta + d}{\Delta}; \quad AB = A_0B_0 \frac{\Delta + d}{\Delta}$$

Inshootning og'ishi kuzatuvchi tomonga bo'lghanollarda esa undagi gorizontal elementning o'lchamlari quyidagi formulalar yordamida topiladi:

$$\frac{AB}{A'_0B'_0} = \frac{\Delta' - d'}{\Delta}; \quad AB = A'_0B'_0 \frac{\Delta' - d'}{\Delta'}$$

bu erda AB – gorizontal elementning haqiqiy o'lchami;

$A_0B_0, A'_0B'_0$ - inshootning og'ishi tegishli ravishda kuzatuvchiga qarama-qarshi tarafga va kuzatuvchi tarafga bo'lghanollardagi AB kesmaning xato o'lchanigan qiymatlari.

Me'moriy obidalarning vertikal holatdan og'ishi $1,5^0$ dan katta bo'lganda AV gorizontal elementning o'lchamini topish aniqligi kamayadi. SHu sababdan ularga tegishli tuzatmalar kiritiladi.

2.3.4. Me'moriy obidalarning tik tekislikda joylashgan tik va qiyaholatdagagi elementlarining o'lchamlarini aniqlash


Tarixiy obidalarning vertikal tekislikda yotgan vertikal va qiyaholatda joylashgan elementlarining o'lchamlarini turli usullar yordamida aniqlash mumkin. Geodezik o'lchash ishlari amaliyotida ushbu vazifani echish uchun trigonometrik nivellirlash usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Me'moriy inshootlarining vertikal holatda joylashgan borib bo'lmas elementlarining o'lchamlarini bevosita quyidagi bog'liqlik orqali aniqlash mumkin (2.7-rasm):

$$h = d \operatorname{tg} v.$$

bu erda d – inshootgacha bo'lgan masofaning gorizontal kuyilishi; v - vertikal burchak.

Vertikal burchak v teodolit yordamida o'lchanadi. Teodolit o'lchamlari aniqlanishi kerak bo'lgan inshootning qarshisiga o'rnatilib, ish holatiga keltiriladi. Uning ko'rish trubasi inshootning o'lchanishi lozim bo'lgan elementining MN kesmada iborat bo'lgano'lchamini aniqlash uchun v_1 vav v_2 vertikal burchaklar o'lchanadi.




2.7-rasm. Vertikal tekislikda yotgan vertikal holatda joylashgan elementlarning o'lchamlarini aniqlash

Inshootgacha bo'lgan masofa ruletka yoki po'lat lenta yordamida o'lchanadi.

Zarur bo'lganholatlarda (joyning vertikal burchagini qiyomi 1,5° dan katta bo'lganholda) chiziqning qiyaligi uchun tuzatma kiritiladi.

Turli predmetlar bilan band bo'lgan intererlarning me'moriy o'lchamlarini olish ishlarini bajarishda, intererning chap yoki o'ng tomonda kichkina narvon o'rnatishning imkoniyati bor bo'lsa, bo'sh turgan devorlariga shovun chizig'i ostida tortib o'rnatilgan ruletkaga teodolit yordamida borib bo'lmas vertikal elementlarni parallel «ko'chirish» ishlarini amalga oshirish mumkin. Bunda asbob-uskunalar etarli darajada turgun holda bo'lishi zarur.

Vertikal tekislikda yotgan qiyaholatda joylashgan elementning o'lchamlarini to'g'ri burchakli uchburchakni echish koidalariiga asosan aniqlash mumkin (2.8-rasm).



2.8-rasm. Me'moriy obidalarning tik tekislikda joylashgan qiya holatdagi elementlarining o'lchamlarini aniqlash.

MNK uchburchakning bitta kateti proektsiyalash usuli bilan, ikkinchisi esa – xuddi tik element sifatida aniqlanadi. 2.8-rasmdan ko'rinib turibdiki, *MN* kesmaning o'lchamlarini aniqlash uchun turtta qiyalik burchagini va ucta masofani (M_0N_0, D_N va D_M) o'lhash talab qilinadi xolos.

MN kesma umumiy holda h_1 va h_2 nisbiy balandliklarning farki sifatida aniqlanadi:

$$MN = h_1 - h_2 = d (\operatorname{tg} v_1 - \operatorname{tg} v_2).$$

Agar $\alpha = 30,5$ m, $v_1 = +25^018'$, $v_2 = +6^029'bo'lsa$

$$h_1 = d \cdot \operatorname{tg} v_1 = 30,5 \cdot \operatorname{tg} 25^018' = 14,42 \text{ m.}$$

$$h_2 = d \cdot \operatorname{tg} v_2 = 30,5 \cdot \operatorname{tg} 6^029' = 3,47 \text{ m.}$$

MN elementningo'lchami

$$MN = h_1 - h_2 = 14,42 - 3,47 = 10,95 \text{ m.}$$

MN kesmaninganiqligini baholash quyidagi formula orqali amalgaoshiriladi:

$$m_{MN} = \sqrt{m_{h_1}^2 + m_{h_2}^2}.$$

Qiyalik burchaklarini teodolit vertikal doirasining ikki holatida (DCH va DO') o'lhash maqsadga muvofiq. Masofalar kamida ikki marta o'lchanadi, bunda o'lhash natijalarining orasidagi fark, me'mori yo'lchamlarni olish ishlarini bajarish uchun qabul qilingan chiziq o'lhashishlarining qabul qilingan yo'l kuyarli nisbiy xatosidan (1/2000) oshmasligi lozim. *LL* shartli nul chizig'igan uqtalarni proektsiyalashterilish vertikal doirasining bitta holatida bajarishgarux satetiladi: buerda asbobning xatoligibirxil (birtomonga) bo'ladiva M_0N_0 kesmaningo'lchamlarini aniqlashishlarining natijalariga t'siretmaydi (2.8-rasmga qaralsin).

Uchburchakning *MN* kesmasiningo'lchami quyidagi chahis oblanadi:

$$MN = \sqrt{MK^2 + NK^2},$$

buerda $MK = M_0 N_0$; $NK = NN_0 - MM_0 = d_N tgv_N - d_M tgv_M$;

$$d_N = D_N \cos v_{N_1}; \quad d_M = D_M \cos v_{M_1}.$$

MN kesmaningo'lchaminianiqlashnngo'rtakvadratikxatosiquyidagiformulaorqali hisoblana di:


$$m_{MN}^2 = m_{MK}^2 + m_{NK}^2$$

2.3.5. Ta'mirlash loyihasini tuzish uchun me'moriy obidalar va ularning

elementlari orasidagi borib bo'lmas masofalarni aniqlash

Geodeziya kursidan ma'lumki, borib bo'lmas masofalarni aniqlashda sinuslar va kosinuslar teoremasi hamda parallaktik usullar qo'llaniladi. 2.9- rasmda me'moriy obidalar va ularning elementlarigacha bo'lgan borib bo'lmas masofalarni sinuslar teoremasidan foydalanib, aniqlash usuli ko'rsatilgan.

Geodeziya sohasiga oid bo'lgan adabiyotlar tahliliga ko'ra, bu kabi masalalarni echish, asosan tekislikdaolib boriladi. Me'moriy o'lcham olish ishlari amaliyotida ko'pincha borib bo'lmasqiya masofalarni xuddi 2.9- rasmda keltirilgani singari aniqlashning zaruriyati paydo bo'ladi. Bu erda masalani echish ishlari ikki bosqichdan iborat bo'ladi: avvalambor, sinuslar teoremasidan foydalanib, A_0S borib bo'lmas masofa aniqlanadi (topilishi zarur bo'lganqiya masofaning proektsiyasi), so'ngra esa AA_0S uchburchakni hisoblash orqali borib bo'lmasqiya masofa aniqlanadi.



2.9-rasm. Me'moriyobidalarningelementlarigachabo'lganborib bo'lmas masofani aniqlash.

Ushbu usul qo'llanilganda V , S va D stantsiyalarni shunday joylashtirish kerakki, bunda VA_0S va SA_0D uchburchaklar iloji boricha teng tomonli uchburchaklar bo'lishi zarur. Bu A_0S borib bo'lmas masofani topish aniqligini oshirishning imkonini beradi.

Sinuslar teoremasidan foydalanib, quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{A_0C}{\sin \beta_1} = \frac{BC}{\sin \beta_3}; \quad (2.3.1)$$

$\beta_3 = 180^\circ - \beta_1 - \beta_2$ bo'lganligi uchun, bazis $VS = V$ bo'ladi, u holda:

$$A_0C = \frac{B \cdot \sin \beta_1}{\sin(\beta_1 + \beta_2)}; \quad (2.3.2)$$

shuningdek

$$A_0C = \frac{CD \cdot \sin \beta_4}{\sin(\beta_4 + \beta_5)}.$$

2.9-rasmga ko'ra, $\frac{A_0C}{AC} = \cos v$. U holda $AC = \frac{A_0C}{\cos v}$ bo'ladi va (2.3.2) formulani hisobga olgan holda, izlanayotgan ASqiyaga masofa quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S_{AC} = \frac{B \cdot \sin \beta_1}{\sin(\beta_1 + \beta_2) \cdot \cos v} \quad (2.3.3)$$

Masalan, joyda o'lhash natijalariga ko'raqquyidagilar olingan bo'lsin:


$$V = 40 \text{ m}, \quad v = 18^\circ 00', \quad \beta_1 = 45^\circ 00', \quad \beta_2 = 33^\circ 00'.$$

U holda, izlanayotgan AS qiyaga masofa quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} S_{AC} &= \frac{B \cdot \sin \beta_1}{\sin(\beta_1 + \beta_2) \cdot \cos v} = \frac{40,0 \cdot \sin 45^\circ 00'}{\sin(45^\circ 00' + 33^\circ 00') \cdot \cos 18^\circ 00'} = \\ &= \frac{34,036}{0,514 \cdot 0,6603} = 100,40 \text{ м} \end{aligned}$$

Demak, ASqiyaga masofa 100,40 m ga teng ekan.

Agar AB va ASchiziqlarda joyning qiyaligi 1,5⁰ dan oshmasa, β gorizontal burchak va AB va AS masofalarni o'lhash kifoya (2.10-rasm). Aks holda v_B va v_S qiyalik burchaklarini o'lhash, AB_0 va AS_0 gorizontal kuyilishlarni aniqlash va B_0S_0 kesmaning uzunligini hisoblash talab etiladi. Tekis bo'limgan joylarda BS va B_0S_0 kesmalar orasida fark bo'lishi mumkin va buni o'lcham olish chizmalarini tayyorlashda hisobga olish zarur.



2.10-rasm.


Me'moriyobidalarelementlar orasida gibrab bo'lmasmas ofalarni o'lhashxemasi.

Izlanayotgan BS masofaniani o'lhash uchun $AB = AS$, $\beta = v_B - v_S$ va $b = a$ debbelgilab, kosinuslar formulasibo'yicha quyidagi hayozish mumkin:

$$a = \sqrt{b^2 + c^2 - 2bc \cos \beta} \quad (2.3.4)$$

Torsharoitlijoylarda, tengtomonliuchburchaklarnio'rnatishningimkonibo'lmasa, boribbo'lmasmasofanianiqlashningparallaktikusuliniqo'llashmumkin (2.11-rasm).

Agar β parallaktik burchak 12^0 dankatta, shularorqali β burchak topiladigan β_A va β_B horizontal burchaklar $\pm 20''$ aniqlikda o'lchangan bo'lsa, bazis esa $1/4000$ atrofidanisbiyxatolik bilano 'lchansa, undanoma'lum L masofani $1/2000$ dankattabo'lma ganxatolik bilantopish mumkin [14]. SHumunosabat bilan, 2.2-jadvaldako 'rsatilgan qiyatlardagi bazis kattaliklarini qabul qilish tavsya etiladi.



2.11-rasm. Borib bo'lmas masofani parallaktik usulda aniqlash.

2.2-jadval. Bazisning tavsiya etiladigan qiymatlari.

Asbobni joylashtirish uzoqlari	20	25	30	35	40	45	50
Bazisning eng kiska qiymati, m	4,2	5,26	6,31	7,36	8,41	9,46	10,51


L masofa (2.11-rasmga qaralsin) quyidagi formula orqalianiqlanadi:

$$L = \frac{1}{2} b \cdot ctg \frac{\beta}{2}, \quad (2.3.5)$$

bu erda b – bazis; $\beta = 180^0(\beta_A + \beta_B)$.

Ayrim hollarda borib bo'lmas masofalarni aniqlashning grafik usullari qo'llaniladi (2.12-rasm).

Bu usulda me'moriy obidalarning (ko'rindigan) yuqorinuqtasini uchta tayanch punktidan turib to'g'ri kesishtirish usulida kuzatish ishlari amalga oshiriladi.



2.12-rasm. Me'moriy obidalarning borib bo'lmas balandligini grafik usulda aniqlash.

Eng qulay bo'lgan kesishtirish burchagi 90° ; kesishtirish intervali – $60^\circ \div 120^\circ$. Kesishtirish burchagini 30° dan kichik qabulqilish mumkin emas. 1, 2 va 3 tayanch punktlari orasida o'zaroko'rinish ta'minlangan bo'lishi shart. Tomonlar uzunligini deyarli teng qabulqilish lozim. Burchaklar iloji boricha puxta o'lchanadi. Tomonlar uzunligi millimetrik bo'lakli ruletka bilan to'g'ri va teskari yo'nalishlarda o'lchanadi. Zarur hollarda chiziqlar qiyaligiga tuzatmalar kiritiladi.


O'lchash ishlari tugaganidan so'ngqog'ozga yirik masshtabda tayanch tarmog'i va me'moriy obida tepasigacha bo'lgan yo'nalish chiziladi. Bu yo'nalishlar kesishgan joyda me'moriy obida tepasining proektsiya holati olinadi (agar nurlar uchburchakni tashkil etsa, uning markazi meridianlar kesishgan nuqtada bo'ladi). Topiladigan masofa qabulqilingan masshtab bo'yicha grafik usulda aniqlanadi.

Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, grafik qurilmalar bilan bog'liqbo'lganqo'shimcha xatolar paydo bo'lishi mumkin, shuningdek yakuniy natijalarini olish uchun kameral ishlarni bajarish zaruriyatini tugiladi.

Me'moriy obidalarning asosiy o'lchamlarini aniqlash ishlarni bajarishda me'moriy obidalar va ular orasidagi borib bo'lmas masofalarni aniqlashning aniq, ishonchli va tejamkor usuli koordinatalar usulidir (2.13-rasm). Koordinatalari ma'lum bo'lgan ikki A va V tayanch punktlaridan turib inshootning yuqorinuqtasini to'g'ri burchakli kesishtirish ishlari bajariladi va inshoot yuqorinuqtasining gorizontal tekislikka proektsiyasi (Snuqta) koordinatalari Yung formulasi bo'yichahisoblanadi. Keyin, ma'lum formulalar yordamida borib bo'lmas masofa aniqlanadi:


$$AC = \sqrt{(X_C - X_A)^2 + (Y_C - Y_A)^2};$$

$$BC = \sqrt{(X_C - X_B)^2 + (Y_C - Y_B)^2};$$



2.13-rasm. Borib bo'lmas masofani koordinatalar usulida aniqlash.

Ushbu usul boshqalariga qaraganda ancha arzon: bor yo'g'i ikkita burchak o'lchash talab etiladi (faraz qilinadiki, A va B -nuqtalar tayanch tarmog'ida yotadi va ularning koordinatalari ma'lum bo'ladi). SHunga muvofiq mehnat sarfi va ish bajarish uchun ketadigan vaqt tejaladi. Natijalar bevosita dalada olinadi.



VS – bazis;

V_{010} va V_{020} – borib bo'lmas masofa sifatida aniqlanadigan kesmalar;

i_B – V stantsiyadagi asbob balandligi;

A_{1-2} – uzunligi aniqlanadigan chiziq azimuti.

2.14-rasm. Me'moriy obidaning borib bo'lmas elementigacha bo'lgan masofani aniqlash.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'muriy o'lcham olish ishlarini bajarishda ko'plab borib bo'lmas masofalarni aniqlash zaruriyati paydo bo'lganda koordinatalar usulini qo'llash ayniqsa samarali bo'ladi.

Me'moriy o'lcham olish ishlari amaliyotida me'moriy obidaning ikki tomoni ham borib bo'lmas bo'lgan elementining o'lchamlarini aniqlash masalasi paydo bo'ladi (2.14-rasm). Bunday holatlarda koordinatalar usulini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalani

echishning rasmida ko'rsatilgan yo'li teodolit s'jomkasi natijalarini qayta ishlashda koordinatalarni hisoblashning keng qo'llaniladigan uslubiga mos keladi.

2.3.6. Ta'mirlashloyihalarini tuzish uchun me'moriy obidalarning borish qiyinbo'lgan balandliklarini aniqlash

Me'moriy obidalarning balandligini aniqlashning eng qiyin tomonlari shundan iboratki, bunda me'moriy inshootlarning yuqoriqismining gorizontal proektsiyasini olishning imkoniyati bo'lmaydi. Agar buning imkonni bo'lsa, ularning balandligini to'g'ri burchakli uchburchaklarning konuniyatlarini qo'llagan holda oson aniqlash mumkin (2.15- rasm).


O'lhashqiyinbo'lgan hollarda inshootning markazigacha bo'lgan gorizontal kuyilishni borib bo'lmas masofani aniqlash kabi topiladi. Ayrim hollarda bu o'lhashqiyinbo'lgan masofani tarixiy obidaning yon tarafidan turib aniqlash mumkin (2.16-rasm), ammo bu usul unchalik katta bo'lmanan simmetrik inshootlar uchun mo'ljallangan.

Agar V stantsiya frontal yo'nalişdan chetda joylashgan bo'lsa (V Ayo'naliş bo'yichao'tadigan tekislik inshootning bo'ylama tekisligiga perpendikulyar bo'lmasa), u holda masofaning «yopik» qismi $b/2 \cos \alpha$ ga teng bo'ladi, bu erda α – og'ish burchagi.


Quyidagi b , i , v_A , v_C va D_C parametrлarni o'lchagandan so'ng inshootning balandligi hisoblab topiladi:

$$H = H'' + i - h_{BC},$$

buerda $h_{BC} = D_C \sin v_C$.



2.15-rasm. Inshoot balandligini aniqlash sxemasi.



2.16-rasm. Me'moriyobidalarningo'lchashqiyinbo'lganbalandliginianiqlash.
H''balandlikningqiymatiquyidagiformulaorqalihisoblanadi:

$$H'' = \left(D_C \cdot \cos v_C + \frac{b}{2} \right) \cdot \operatorname{tg} v_A.$$

YUqoridakeltirilganformulalardanfoydalananibinshootningbalandligiquyidagichaaniqlanadi

$$H = \left(D_C \cdot \cos v_C + \frac{b}{2} \right) \cdot \operatorname{tg} v_A + i - D_C \cdot \sin v_C.$$

Agarb = 3,08 m; i = 1,46 m; $v_A = 29^{\circ}10'$; $v_C = 1^{\circ}55'$; $D_C = 21,0$ bo'lsa, inshootningbalandligiquyidagichaaniqlanadi:


$$H = \left(D_C \cdot \cos v_C + \frac{b}{2} \right) \cdot \operatorname{tg} v_A + i - D_C \cdot \sin v_C =$$

$$= (21,0 \cos 1^{\circ}55' + 3,08/2) \operatorname{tg} 29^{\circ}10' + 1,46 - 21,0 \sin 1^{\circ}55' = 13,33 \text{ m.}$$

2.3.7. Planda aylana shakliga ega bo'lgan me'moriy obidalarning radiusini va aylana markazi koordinatalarini aniqlash

Me'moriy obidalar ko'pincha aylanasining radiusi va markazi koordinatalari aniqlanishi talab etiladigan tsilindrik, konik, shar shaklidagi va boshqako'rinishlarga ega bo'lgan elementlardan iborat bo'ladi.

Agar me'moriy obidaning elementlari murakkab shaklda bo'lsa (2.17- rasm), o'lcham olish ishlari bosqichli ravishda olib boriladi. Har bir shartli sath uchun β va v burchaklar aniqlanadi. O'lcham olish chizmalarini tuzishda barcha o'lchamlarni hisoblash uchun shularning o'zi etarli bo'ladi.



2.17-rasm. Me'moriy obidaning turli gorizontlarida uning radiusini aniqlash sxemasi.

Agar me'moriy obidalarda o'zo'qidan sezilarli darajada og'ish paydo bo'lsa, har bir shartli sathlar uchun d masofa alohidaaniqlanadi. Barcha d masofalarni aniqlab, nafaqat me'moriy obidalar elementlarining o'lchamlarini aniqlash mumkin, balki uning og'ishihaqidagi xama ma'lumotlarni olish mumkin (ogishning absolyut va nisbiy qiymatlari, og'ishyo'nalishi va boshqalar).

2.17-rasm orqali me'moriy obidalar elementlarining turli gorizontlardagi radiuslari quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$R_1 = d \cdot \sin \frac{\beta_1}{2}; \quad R_2 = d \cdot \sin \frac{\beta_2}{2}; \quad \dots; \quad R_n = d \cdot \sin \frac{\beta_n}{2},$$

bu erda $h = 1, 2, 3, 4, 5, 6$ – shartli satxiy balandlik(gorizont)lar; d - masofaning gorizontal kuyilishi (odatda ikki tayanch punktidan borib bo'lmas masofa singari aniqlanadi).

Har bir gorizontning nisbiy balandligi asbob balandligiga nisbatan quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta h_1 = d \cdot \operatorname{tg} v_1; \quad \Delta h_2 = d \cdot \operatorname{tg} v_2; \quad \dots; \quad \Delta h_n = d \cdot \operatorname{tg} v_n.$$

U holda, gorizontlar balandligi quyidagi ifodalar bo'yichahisoblanadi:

$$H_1 = H_A + i + \Delta h_1; \quad \dots; \quad H_n = H_A + i + \Delta h_n.$$

Agar aylana shaklidagi elementni bevosita o'lchashning imkonи bo'lsa, uning radiusi ma'lum formula bo'yichaaniqlanadi:

$$R = \frac{C}{2\pi},$$

bu erda S – ruletka bilan o'lchangan aylananing uzunligi. O'lchash noqulay bo'lghanollarda elementlarning radiusi, zarur bo'lghanollarda esa markaz koordinatalari bitta geodezik tarmog'i punktidan turib, teodolit va ruletka yordamida aniqlanadi (2.18-rasm).


FD masofa β burchak bissektrisasi yo'nalishi bo'yicha ruletka yordamida o'lchanadi, agar o'lchash uchun sharoit etarli bo'lmasa, unda FO masofa xuddi borib bo'lmas masofa kabi aniqlanadi.

ΔFBO uchburchakdan quyidagini olish mumkin:

$$\frac{R}{d+R} = \sin \frac{\beta}{2},$$

bu erdan

$$R(1 - \sin \frac{\beta}{2}) = d \sin \frac{\beta}{2}.$$



2.18-rasm.

I
Radius... agi formula bo'yichahisoblanadi:

$$R = \frac{d \cdot \sin \frac{\beta}{2}}{1 - \sin \frac{\beta}{2}},$$

bu erda $d - F$ nuqtadan D nuqtagacha bo'lgan masofa.

U holda inshootning markaz koordinatalari quyidagicha aniqlanadi:

$$X_0 = X_F \pm (d + R) \cos \alpha; \quad Y_0 = Y_F \pm (d + R) \sin \alpha,$$

bu erda $\alpha - FO$ chiziq yo'nalishidagi direktzion burchak.

2.3.8. Me'moriy obidalarning o'lchamlarini aniqlashning tezkor geodezik usuli


Me'moriy obidalarning o'lchamlarini aniqlashning geodezik usuli, umuman olganda turli xil plan olish ishlarni bajarish maqsadida geodeziyada ishlab chiqilgan chiziqlar, burchaklar va nisbiy balandliklarni o'lhash ishlarning majmuasini tashkil etadi. Bu kontaktsiz usul, ya'ni o'lcham olish ishlarni bajarish uchun ko'p sarf xarajatlar talab qiladigan narvonlar va xavozalarni qurishni talab etmaydi. Bu esa uning naturali (qo'l usulida) o'lcham olish usuliga nisbatan eng katta afzalligi va yutugidir. Ammo, geodezik usul, shubhasiz zamonaviybo'lishiga qaramasdan, ko'p mexnat talab qiladi. O'lcham olish ishlarni bajarish jarayonlari ko'pvaqtini olishi mumkin.

Bajariladigan ishlarga ketadigan mexnat sarfini kamaytirish uchun o'lcham olish chizmalarining xossalarni ob'ektning markaziy proektsiyasi sifatida qo'llash mumkin. Proektsiya markazi bo'lib geodezik o'lhash ishlari bajariladigan tayanch punkti xizmat qiladi. Faqatgina nazorat uchun to'liq o'lhashlar tsikli talab etiladi va faqat shu nuqtalardagi o'lhash ishlari to'liq kameral tarzda qaytahisoblanadi. Boshqanuqtalar uchun dalada faqat eng zaruriy o'lhash ishlari bajariladi va bunda bu o'lhashlar natijalarini kameral hisoblash ishlari talab etilmaydi: chizmada nuqtalar turli grafik qurilmalar yordamida belgilanadi.

S'yomka qilish uchun stantsiyani shunday tanlash zarurki, bunda u kuzatilayotgan fasadga perpendikulyar holda joylashgan obida devorining stvorida o'rnatilishi lozim.

Agar bunday stantsiyalarni o'rnatish tayanch tarmog'ini barpo etishda kuzda tutilmagan bo'lsa, u holda tanlangan stantsiyani tayanch tarmog'iga bog'lashni amalga oshirish zarur. Agar faqat o'lcham olish chizmalarini olish topshirigi berilgan bo'lsa, bog'lash ishlarni bajarishning zaruriyati bo'lmaydi.

Asbobni orientirlash «stantsiya-nazorat nuqtasi» yo'nalishi bo'yicha amalgalash oshiriladi.




2.19-rasm. Tezkor geodezik usulda o'lcham olish.
a) dala ishlari; b) o'lcham olish chizmasini yaratish sxemasi.

S'jomkani boshlashdan oldin s'jomka nuqtalarining nomerlari, nazorat nuqtalarining holati va o'lchash natijalari ko'rsatilgan fasadning tasviri qo'lda chiziladi. Bu hujjatni kroki deb atash mumkin (2.20-rasm), ammo joydag'i o'lchashlardan farkli ularoq, bu erda o'lchamlar ko'rsatilmaydi.

Kuzatish ishlarini qayd etish uchun taxeometrik s'jomka jurnalni yoki uning soddalashtirilgan shaklidan foydalanish mumkin (2.21-rasm).

S'jomka boshlanishida teodolit vertikal doirasining nul o'rni (NU) aniqlanadi va u 1' dan katta bo'lsa tuzatiladi (geodeziya kursiga qaralsin). Ish kuni mobaynida nul o'rni ikki-uch marta tekshiriladi.



2.20-rasm. O'lcham olish ishlari krokisi.

Gorizontal burchaklarni aniqlash qulay bo'lishi uchun teodolit limbining nul bo'lagi alidadaning nul bo'lagi bilan birlashtiriladi va limbni (alidada vintining mahkamlangan holatida) aylantirib, qarash trubasi iplar to'rinining markazini sanoqning boshlang'ich nuqtasiga qaratiladi. Bunday nuqta sifatida hammasidan ko'ra chap tomonidan eng chekkadagi nazorat nuqtasini tanlash qulayroq. Stantsiyada ishni bajarib bo'lgunga qadar limb mahkamlangan holda qoldirildi. S'jomka nuqtalarini kuzatish alidada va ko'rish trubasini aylantirish orqali amalga oshiriladi. Gorizontal doiradan olingan sanoq boshlang'ich yo'nalishidan s'jomka qilish nuqtasi yo'nalishigacha bo'lgan gorizontal burchak qiyamatini avtomatik ravishda beradi. SHu bilan bir vaqtning o'zida vertikal doiradan olingan sanoqham jurnalga yozib qo'yiladi.

O'lcham olishjurnali

Sana..... Teodolit..... Ob-xavo..... Bajaruvchi.....

Stantsiya	Kuxzatish nuqtalari №	Asbob baland ligi, m	Sanoqlar			Nul o'rni	Qiyalik burchagi	Izox
			masofa- lar, m	vertikal doira	gorizontal doira			

2.21-rasm. S'jomkaqilish jurnalining shakli.

Nazorat nuqtalarigacha bo'lgan masofa ruletka yordamida puxta o'lchanadi. Bundan tashqari fasadning o'lchashga qulay bo'lgan bir necha elementlari o'lchanadi. (Masalan, 2.20-rasmida S-15,15-22). Bu kelgusi grafik qurilmalarning to'g'ri bajarilishiga ishonch xosil qilish imkoniyatini beradi.

Nazorat nuqtalarining gorizontal burchaklarini (agar ular bir nechta bo'lsa) teodolitning «0» sanog'iga birlashtirmasdan oldin o'lhash lozim. Kolgan barcha nuqtalarni s'jomka qilish boshlang'ich yo'nalishga gorizontal doiraning «0» sanog'i birlashtirilganidan so'ng vertikal doiraning bir holatida (doira chap holatida) bajariladi. Har bir nuqta uchun grizontal va vertikal burchaklarni o'lhash lozim. O'lcham olish chizmasida nuqtalarning joylashgan holatini grafik qurilmalar orqali topish uchun shularning o'zi etarli bo'ladi.

Grafik qurilmalarni bajarishda nuqtalarning bir qismi fasadning asosiy tekisligida emas, balki orka yoki oldingi planda joylashgan bo'lishini e'tiborga olish lozim. Tegishli ravishda, vertikal tekislik o'rni A_0 proektsiya markaziga yaqinlashadi yoki uzoqlashadi (2.19-rasmida V, V₁, V₂). Buning uchun zarur bo'lgano'lhash ishlari dala ishlarini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. O'lcham olishning tezkor geodezik usulining aniqligi, asosida analitik hisoblashlar yotadigan usullarning aniqligidan kam. Agar geodezik transportir bilan burchak yasash aniqligi 10' deb qabulqilinsa, u holda nuqtagacha bo'lgan masofa 30 m va qiyalik burchagi 30° bo'lganda ± 0,02 kushimcha xatolik paydo bo'ladi (daladagi xatoliklarni hisobga olmasdan). SHuning uchun ushbu usulning qo'llanish sohasi birmuncha chegaralangan bo'ladi. Bu usul mayda masshtabli (1:100, 1:200) o'lcham olish chizmalari qo'llanilgan hollarda ishlatilishi mumkin.

2.4. Me'moriy obidalarning o'lchamlarini aniqlashda zamonaviy lazerli elektron geodezik asboblarni qo'llash


Geodezik o'lhashlarning asosiy maqsadi sisfatli topografik materiallar yaratishdan iborat. Geodeziyaning oldida turgan yana asosiy vazifalardan biri bu geodezik o'lhash natijalarining aniqligini oshirishdir. Buning uchun esa ikkita masalani echish talab qilinadi: yuqori aniqlikdagi asboblarni qo'llashyoki yangi usullarni yaratish.

Hozirgi paytda xorijiy mamlakatlar firmalari tomonidan zamonaviy aniq va yuqorianiqlikdagi lazerli elektron geodezik asboblarni ishlab chiqarilmoqda. Bu asboblarni qo'llashyuqorida bayon etilgan masalalarni echishda juda qo'l keladi. Bularni qo'llash dala o'lhash va kameral hisoblash ishlari vaqtini tejaydi, ish unumdorligini, sifatini, hamda ulchov natijalari aniqligini oshiradi.

SHveytsariyaning Leyka firmasi quyidagi geodezik asboblarni ishlab chiqarmoqda:

- optik teodolitlar (T1, T2, T16, RDS), ularning burchak o'lhasho'rta kvadratik xatolari har biri uchun mos ravishda - 3", 08", 3" va 3";
- elektron teodolitlar (T1000, T1600, T2002, T3000), o'rta kvadratik xatolari har biri uchun mos ravishda - 3", 1,5", 1", va 0,5" (1-rasm);
- elektron taxeometrlar (TS 1000, TS 1600), burchak o'lhasho'rta kvadratik xatolari har biri uchun mos ravishda - 3" va 1,5", masofa o'lhasho'rta kvadratik xatolari - 3 mm +2 10⁻⁶ D ga teng;
- elektrosvigatelli yuqorianiqlikdagi o'lhashlarni avtomatik ravishda bajaruvchi teodolitlar (TM 3000 V, TM 3000 D, TM 3000 L). TM 3000V – ko'rish trubasi avtomatik ravishda markaga yo'naluvchi yuqorianiqlikdagi teodolit. TM 3000 D – dalnomer nasadkasi o'rnatishga moslashgan elektrosvigatelli yuqorianiqlikdagi teodolit. TM 3000 L – lazer uskunasi o'rnatilishiga moslashgan yuqorianiqlikdagi teodolit;
- elektron dalnomerlar (DI 1001, DI 1600, DI 2002, DI 3000), ularning masofa o'lhashaniqliklari har biri uchun mos ravishda 5 mm + R , 3 mm + R, 1 mm + R , 3 – 5 mm +R, bu erda, R = 5 · 10⁻⁶ D, R = 2 · 10⁻⁶ D , R = 1 · 10⁻⁶ D ;
- masofani nur qaytargichsiz aniqlaydigan elektron dalnomer DIOR 3002;
- dala o'lhash natijalarni qayd etuvchi va saklovchi terminal (disk)lar. Ular ikki xil ko'rinishda ishlab chiqarilmoqda, ya'ni alfavit-sonli va teodolitlarning o'ziga o'rnatiladigan mini terminallar;
- aniqlanishi kerak bo'lgannuqtani belgilash va topish uchun GLZ 1 va GLZ 2 lazer nasadkalari;
- nivelirlar (NA 20, NA 24, Kernlevel, NA 28, NA 2 / NAK 2, NK 2, N 3), o'rta kvadratik xatolari 1 km uchun har biriga mos ravishda – 2,5 , 2, 2, 1,5 , 0,7 , 2, 0,2 mm;
- LNA 2 L lazerli niveliri. Lazer 250 – 450 m masofaga mo'ljallangan;

- NA 2000 elektron niveli;
 - vertikal proektsiyalash asboblari (ZNL, ZL / NL), xatoliklari: 1 : 30000 va 1 : 200000;
 - prizmalar, vizir markalari, veva, shtativlar, zaryadlash uskunalar, adapterlar va boshqalar;
 - GPS sputnik sistemasi uchun geodezik asboblar (WM 101 / WM 102, GAK1).
- Elektron teodolit va taxeometrlar elektron dalnomerlar va natijalarni saqlovchi terminallar bilan birgalikda kompleks ravishda qo'llaniladi (2.22-rasm).



2.22-rasm. Lazerli elektron geodezik asboblarning ishlash tamoyili. Jadvali

Ma'lumki, me'moriy obidalarning aksariyat qismlari va elementlari bevosita o'lchash uchun juda noqulay holatda joylashgan bo'ladi. SHunday hollarda SHvetsariyaning Leyka firmasi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqarilgan T1000 elektron teodolitiga o'rnatiladigan DIOR 2002 markali dalnomer nasadkasi va GLZ 1 yoki GLZ 2 markali lazer trubkasidan iborat elektron asboblar komplektidan foydalanish mumkin. Ushbu elektron asboblar komplektini qo'llab, murakkab geometrik shakliga ega bo'lgan me'moriy obidalarning noqulay joylarida joylashgan fazoviy nuqtalarining koordinatalarini hech qanday nur qaytargichlar yoki markalar o'rnatmasdan, osongini aniqlash mumkin. Barcha dala o'lchash ishlari natijalari saqlangan terminallardan GIF rusumli interfeyslar yordamida kompyuterga uzatiladi. Talab qilingan zaruriy materiallar va chizmalar grafik tuzuvchi uskunalar yoki plotterlar yordamida yaratiladi. Bu ishlar tayyor maxsus standart dasturlar orqali amalga oshiriladi.

WILD T1000 teodoliti 3" aniqlikda ishlaydigan elektron teodoliti bo'lib, uni Leyka firmasining harqanday turdag'i elektron dalnomeri bilan birgalikda ishlatish mumkin. Ko'rish trubasi – odatdagidek (oddiy), kattalashtirishi – 30 marta, ko'rish maydoni 1000 m ga 27 m, eng kichik vizirlash masofasi – 1,7 m, asbobning og'irligi 4,5 kg, kuchlanish manbai – 12 V.

Ma'lumki, joyda masofani bevosita o'lchash uchun maxsus ruletka va ruletkalar, svetodalnomerlar, radiodalnomerlar va boshqalar qo'llaniladi.

Svetodalnomer yordamida masofa o'lchash yorug'lik nurining tezligi va o'tgan vaqtiga asoslangan. YUboriladigan yorug'lik nuri oxirgi nuqtada o'rnatilgan nur qaytargichga borib, yana orqaga qaytadi. Ammo, me'moriy obidalarni ta'mirlash jarayonida shunday vaziyatlar bo'ladiki, o'lchanishi lozim bo'lgan masofaning oxirgi nuqtasiga nur qaytargich o'rnatish imkoniyati bo'lmaydi. Masalan, me'moriy obidalar, bino va inshootlar o'lchamlarini aniqlashda,

borib bo'lmas masofalarni aniqlashda, asbobdan biror vertikal to'siqqacha bo'lgan masofani o'lchashda va hokazo.

DISTOMAT DIOR 3002 dalnomerida 14 km gacha bo'lgan masofani sekundiga $\pm 3-5$ mm+ $10^{-6}D$ aniqlik bilan o'lchaydigan vaqt-impulsli o'lchash usuli qo'llaniladi. Nur qaytargich bilan o'lchash bilan bir qatorda, dalnomer 250 m gacha bo'lgan masofani 5-10 mmaniqlikda nur qaytargichsiz o'lchashga qodir. Bu asbobni er osti kommunikatsiyalarini s'jomkaqilishda, nur qaytargich va markalarni o'rnatishning imkonini bo'limgan ob'ektlargacha bo'lgan masofalarni aniqlashda, geodeziya va amaliy geodeziyada harqanday ishlarni bajarish uchun qo'llash mumkin. Uni harakatdagi ob'ektlargacha bo'lgan masofalarni o'lchashda (kemalar, buldozerlar, greyderlar, kranlar va boshqalargacha) ham ishlatish mumkin. Uning me'yoriy rejimdagi o'lchashvaqtisi – 3 sekund, ko'p martalik rejimda 0,8-0,3 sekund, dalnomerning og'irligi – 1,7 kg, kuchlanish manbai 128.


Ishlash temperaturasi diapazoni -20°S dan $+50^{\circ}\text{S}$ gacha, yuboriladigan lazer nurining diametri 50 m masofagacha 0,1 m, 100m ga 0,2 m va 200 m ga 0,3 m.

Aniqlanishi lozim bo'lgannuqtani topishva belgilash uchun GLZ 1 yoki GLZ 2 rusumidagi lazerli nasadkalar xizmat qiladi. Lazerli nasadka DIOR 3002 svetodalnomerining yon qismiga o'rnatiladi. Lazerli nasadka va dalnomerning o'qlari maxsus prizmalar yordamida biriktiriladi.

O'lchash ishlarini boshlashdan avval lazerli nasadka va dalnomer o'qlarining mos tushishi tekshiriladi.

GRM 10 REC – *module* ma'lumot yig'ish uskunasi T 1000 teodoliti yordamida olinadigan dala o'lchash ishlari ma'lumotlari qayd etish uchun qo'llaniladi. Uning sigimi 500 atrofidagi ma'lumotlar blokini (16 kbayt) tashkil etadi. Ma'lumotlarni qayd etish teodolitdagi ALL tugmachasini bosish orqali amalga oshiriladi. Uskunaning o'lchami – 74x60x10 mm, massasi – 70 g, ma'lumotlarni saqlash muddati – 10 yil. GIF 10 va GIF 12 interfeyslari (ma'lumotlarni sanash asboblari) yordamida dala o'lchash ishlari ma'lumotlarini REC- *module* dan kompyuterga va aksincha o'tkazish mumkin.

Dala ishlarini boshlashga kirishishdan avval, asboblarni o'rnatish va tekshirish amalga oshiriladi. Elektron teodolit klaviaturasining ko'rinishi 2.23-rasmda ko'rsatilgan.



2.23-rasm. Elektron teodolit klaviaturasining ko'rinishi

Asboblarni o'rnatish va tekshirish ishlaridan so'ngo o'lchash va dala ishlari ma'lumotlarini qayta ishlash amalga oshiriladi. Masofalar nur qaytargichsiz o'lchanganda teodolit va dalnomer ko'rish trubalari o'qlarining mos tushmasligi sababli o'lchanadigan masofaga tuzatmalar kiritiladi (2.24-rasm).

Qiya masofa va balandlik uchun tuzatmalar quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$\Delta h = b / \cos v; \Delta l = b \operatorname{tg} v. \quad (2.4.1)$$

Gorizontal masofa va nisbiy balandlik quyidagi formulalar bo'yichahisoblanadi:


$v > 0$ bo'lganida

$$d = (S - b \operatorname{tg} v) \cos v; h = (S - b \operatorname{tg} v) \sin v + b \cos v, \quad (2.4.2)$$

$v < 0$ bo'lganida

$$d = (S + b \operatorname{tg} v) \cos v; h = (S + b \operatorname{tg} v) \sin v - b \cos v, \quad (2.4.3)$$

buerdab – dalnomervateodolitko'rishtrubalario'qlariorasidagimasofa ($b = 87$ mm); v – vertikalburchak, $v = 90 - z$; S – dalnomerbilano'lchanganqiyamasofa.



2.24-rasm. Teodolit va dalnomer ko'rish trubalari o'qlarining mos tushmasligi sxemasi.
Kuzatilayotgan nuqtalarining koordinatalari quyidagi formulalar bo'yichaaniqlanidi:

$$X_i = X_0 + (S_i + \Delta l_i) \cos v \cos \alpha; \quad (2.4.4)$$

$$Y_i = Y_0 + (S_i + \Delta l_i) \cos v \sin \alpha; \quad (2.4.5)$$

$$Z_i = Z_0 + (S_i + \Delta l_i) \sin \alpha + \Delta h, \quad (2.4.6)$$

buerda X_0, Y_0 va Z_0 – asbobo'rnatiladiganniqtalarining koordinatalari; α – direktsionburchak.

GRE 3 / GRE 4 rusumidagima'lumotlarnisaqlaydiganuskunalaruchun WILD PROFIS 11 maxsushisoblashdasturlarimavjud. Ushbudasturlartegishliravishda Δl iΔhtuzatmalarnikiritib, masofalarnihisoblashimkoniberadi [16].

Taklifetilayotgane elektronasboblar niqo'llagan holdare jaolishusulining afzalliklari quyidagi ardaniborat:

1. Dala o'lchash ishlarining yuqori samaradorligi.
2. Reja olish bilan bir vaqtning o'zida geodezik asos yaratiladi, natijada bu ishlarni bajarish uchun qo'shimcha vaqt talab etilmaydi. Geodezik asosning to'g'ri barpo etilganligi avvalgi nuqtaning koordinatalarini aniqlash orqali dalada to'g'ridan to'g'ri tekshiriladi.
3. Kuzatilayotgan joylardagi aniqlanadigan nuqtalar lazer nuri yordamida qulay tarzda yoritiladi va kuzatishda xatolikka yo'lqo'yilmaydi. Inshootlar yuzasidagi nuqtalarining koordinatalarini aniqlash o'rta kvadratik xatosi 40 m masofagacha 10 mm dan oshmaydi.
4. O'lchash natijalarini qayta ishlash EHM larda amalga oshiriladi. Asboblar yordamida olingan barcha dala ishlarining natijalari ma'lumotlar saqlanadigan uskunadan GIF 10 interfeysi orqali kompyuterga uzatiladi. Bu ma'lumotlar tahrirqilinadi va tegishli tuzatmalar kiritiladi. Olingan natijalar asosida inshootning tarhlari, qirqimlar va frontal rejalar grafik quruvchi uskuna yordamida tuziladi.

2.5. Me'moriy obidalar devorlarining frontal rejasini lazerli elektron geodezik asboblar turkumi yordamida yaratish

Me'moriy obidalar devorlarining yuzasiga nur qaytargich prizma o'rnatishning imkonи bo'lmasligi uchun lazerli elektron geodezik asboblar turkumini devorning deformatsiyasini aniqlash va frontal rejalarни tuzish uchun qo'llashmaqsadga muvofiqdir.

Devor yuzasining deformatsiyasini tahlilqilish ushbu yuzaga markalar o'rnatish va ularning fazoviy koordinatalarini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Leyka firmasining elektron geodezik asboblar turkumiqo'llanilganda devor yuzasiga markalar o'rnatish kerak bo'lmaydi, balki ixtiyoriy nuqtalarga lazer nuri qaratilib, ALL tugmachaсини bosish bilan kiska vaqt ichida yuzlab nuqtalarning X , Y , Z fazoviy koordinatalarini hisoblashdan tashqari, xoxlagan tarh, qirqim yoki fazoviy ko'rinishlarni avtomatik ravishda tuzish imkoniyati paydo bo'ladi (2.25-rasm).

Devor yuzasidagi nuqtalar fazoviy koordinatalarini kerakli aniqlikda topish uchun quyidagi shartlarga amal qilish kerak:

- tahlilqilish kerak bo'lган devor yuzasini chekka 1 – inuqtalardan asboblar turkumio'rnatilgan nuqttagacha bo'lган masofa bir xil bo'lishi kerak, shunda $S - jchiziq$ devor 1 jichizig'iga perpendikulyar bo'ladi;

- asbob o'rnatilgan nuqtadan devor yuzasigacha bo'lган masofa quyidagi shartni bajarishi kerak

$$L \geq \frac{b}{2tg\beta_{uek}}, \quad L \geq \frac{(H-l)}{tg\beta_{uek}}$$

bu erda b – tahlilqilinayotgan devor yuzasining uzunligi;

H – tahlilqilinayotgan devor yuzasining balandligi;


β_{uek} – cheklangan maksimal gorizontal burchak, $\beta_{uek} = 35^\circ$, tahlil natijalari asosida aniqlangan.

Agar suratga olish vaqtida yuqorida ko'rsatilgan L_1 va L_2 masofalar kichik bo'lib kolsa, unda devor yuzasiga parallel stvor chiziq yaratilib bir necha S_1 , S_2 , ..., S_n nuqtalardan turib s'jomka qilish amalga oshiriladi (2.26-rasm).


Devor yuzasidagi nuqtalarning x_i , y_i va z_i koordinatalari quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$\left. \begin{array}{l} x_i = x_s + (S + \Delta l) \cos v \cdot \cos \alpha \\ y_i = y_s + (S + \Delta l) \cos v \cdot \sin \alpha \\ z_i = z_s + (S + \Delta l) \sin v + \Delta h \end{array} \right\} \quad (2.5.1)$$

$$\text{bu erda } \Delta l = b \cdot \operatorname{tg} v \quad \text{va} \quad \Delta h = \frac{b}{\cos v}, \quad b = 87 \quad \text{cm};$$



2.25-rasm. Me'moriy obida fazoviy koordinatalarini aniqlash



2.26-rasm. Me'moriy obidani s'yomka qilish sxemasi.

Nuqtalarning X , Y , Z fazoviy koordinatalarining m_x , m_y va m_z -o'rta kvadratik xatolarini hisoblash uchun (2.5.1) formulani differentialsallab, o'rta kvadratik xatolarga o'tsak quyidagi formulalarni olamiz

$$\begin{aligned}
 m_x^2 &= m_s^2 \cos^2 v \cdot \cos^2 \alpha + \frac{m_v^2}{\rho^2} \left[S^2 \cos^2 \alpha \left(\sin^2 v + \frac{b^2}{S^2} \cos^2 v \right) \right] + \\
 &+ \frac{m_\alpha^2}{\rho^2} \left[S^2 \sin^2 \alpha \left(\cos^2 v + \frac{b^2}{S^2} \sin^2 v \right) \right]; \\
 m_y^2 &= m_s^2 \cos^2 v \cdot \sin^2 \alpha + \frac{m_v^2}{\rho^2} \left[S^2 \sin^2 \alpha \left(\sin^2 v + \frac{b^2}{S^2} \cos^2 v \right) \right] + \\
 &+ \frac{m_\alpha^2}{\rho^2} \left[S^2 \cos^2 \alpha \left(\cos^2 v + \frac{b^2}{S^2} \sin^2 v \right) \right]; \\
 m_z^2 &= m_s^2 \sin^2 v + \frac{m_v^2 \cdot b^2}{\rho^2} \left[\frac{S^2}{b^2} \cos^2 v + \operatorname{tg}^2 v + \sin^2 v + \frac{\operatorname{tg}^2 v}{\cos^2 v} \right].
 \end{aligned}$$

$$\text{Agar } \frac{b^2 \cdot \cos^2 v}{S^2}, \quad \frac{m_v^2 \cdot b^2}{\rho^2} (\operatorname{tg}^2 v + \sin^2 v), \quad \frac{b^2 \cdot \sin^2 v}{S^2}$$

qiymatlarining kichikligini hisobga olib, bu hadlarni tashlab yuboramiz. SHundan so'ngquyidagi tenglamalar hosil bo'ladi

$$m_x^2 = m_s^2 \cos^2 v \cdot \cos^2 \alpha + \frac{S^2 \cdot m_\beta^2}{\rho^2} (\cos^2 \alpha \cdot \sin^2 v + \sin^2 \alpha \cdot \cos^2 v),$$


$$m_y^2 = m_s^2 \cos^2 v \cdot \sin^2 \alpha + \frac{S^2 \cdot m_\beta^2}{\rho^2} (\sin^2 \alpha \cdot \sin^2 v + \cos^2 \alpha \cdot \cos^2 v),$$

$$m_z^2 = m_s^2 \sin^2 v + \frac{S^2 \cdot m_v^2}{p^2} \cos^2 v.$$


O'lchashaniqliklarini qiymatlarini aniq misolda ko'radigan bo'lsak, agar $B = 10$ m, $b = 10$ m, $L = 10$ m; $m_v = m_\alpha = m_\beta = 3''$ deb olsak, unda devor yuzasidagi eng noqulay joylashgan 3 ta nuqta uchun o'rta kvadratik xatolarni hisoblaymiz.

Nuqtalar	m_x	m_y	m_z
I – nuqta	5,0	0,145	0,14
II – nuqta	4,33	2,50	0,16
i – nuqta	3,75	2,18	2,51


Jadvaldagi natijalardan ko'rniib turibdiki, o'lchashaniqligi juda yuqori. O'lchash natijalari asosida tuzilgan devor yuzasining frontal ko'rinishi 2.27-rasmida ko'rsatilgan. Bundan tashqario'lchash natijalari asosida kundalang va buylama qirqimlar, planlar, frontal planlar, harqanday elementlarning o'lchamlarini chizish mumkin (2.27- 2.31-rasmlar).




2.27-rasm. Kusam ibn Abbas makbarasi janubiy devorining frontal ko'rinishi.




2.28-rasm. Elektron taxeometr yordamida olingan frontal ko'rinishi.



2.29-rasm. Qusam ibn Abbas maqbarasi kirish zaliming tarhi.



2.30-rasm. Me'moriy obidaning kundalang kirkimi



2.31-rasm. SHohizinda ansamblı devori yuzasining topografik rejasi

Xorijiy manbalar

1. http://isp.vstu.edu.ru/product_info.php?products_id=1608
2. http://knowledge.allbest.ru/geology/2c0a65635a2ad78b5c53b88521216c37_0.html
3. <http://rutracker.org/forum/viewtopic.php?t=2647499>
4. <http://k3111.narod.ru/kurs.html>
5. www.colibri.ru
6. www.geodez.ru
7. www.gki.uz
8. www.gov.uz
9. www.qkz.uz
10. www.kadastr.ru;
11. www.go.mail.ru;
12. www.gisinfo.ru

O'QUV REJADA KURS ISHI RAJALASHTIRILMAGAN

ANNOTATSIYALAR

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Samarqand davlat arxitektura-qurilish institui va Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Konchilik ishi va geodeziya" kafedrasida prof.-o'qituvchilari hamkorligida tayyorlangan. Ushbu UUM "Geodeziya, kartografiya va kadastr" ta'limi yo'nalishi uchun Me'moriy obidalar o'lchamlarini aniqlashning geodezik usullari fanidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan.

Uning asosiy maqsadi talabalarni Me'moriy obidalar o'lchamlarini aniqlashning geodezik usullarini mohiyati va xususiyatlari bilan atroficha tanishtirish hamda ularni ilmiy va amaliy faoliyatida Me'moriy obidalar o'lchamlarini aniqlashni va foydalanish asoslariga o'rgatishdan iborat.

SHuningdek u asosiy geodeziyani o'z ichiga olib, geodezik o'lchovlar va ularni planga tushirish bilan talabalarni tanishtiradi.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT

Aliqulov G'ldib Nortoshevich, Qishloq xo'jalik, dosent v.b.

1993-1998 yy. - Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti talabasi

1998-2011 yy. - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti er tuzish va er kadastro kafedrasi assistenti

2011-2012 yy. -Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti geodeziya, kartografiya vakadastr kafedrasi katta o'qituvchisi

2012- 2015 yy - Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti geodeziya, kartografiya va kadastro kafedrasi mudiri

2015 y. - h.v. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti konchilik ishi va geodeziya kafedrasi mudiri

Foydali maslahatlar

Talabalar «Me'moriy obidalar o'lchamlarini aniqlashning geodezik usullari»fanini chuqur o'zlashtirishlari uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlarda beriladigan materiallar o'zaro uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Buni samarali amalga oshirishda xozirgi zamon o'quv qurollari va yordamchi texnika vositalardan keng foydalanish hamda yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilishlari muhim ahamyatga egadir.

Normativ xujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 15 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida”gi PF-3502-sonli Farmoni
- 2.“O'zbekiston Respublikasida geodeziya va kartografiya faoliyatini litsenziyalash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 14 noyabrdagi 510-son qarori bilan tasdiqlangan nizom
3. O'zbekiston Respublikasining “Geodeziya va kartografiya to'g'risida”gi Qonuni. 25 aprel 1997 yil
4. “O'zdavergeodezkadastr” davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan “Er uchastkalarini tashkil etish, topografik-geodezik, kadastr s'yomkalari ishlarining qiymatlari to'g'risida”gi 2009 yildagi 12 iyundagi 62-1-sonli yo'riqnomasi.
- 5.“Instruktsiya o poryadke kadastrovogo deleniya territorii i prisvoeniyu kadastrovix nomerov zemelnim uchastkam, zdaniyam i soorujeniyam”/Toshkent. Goskomzem-Uzgeodezkadastr. 2002. -55-60 str.

